

# **SAN'ATSHUNOSLIKDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH**



- ❖ O'zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ “San'atshunoslik”(turlari bo'yicha) yo'nalishi
- ❖ Professor Tojiboyeva Oltinoy Qosimovna

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim  
vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan  
tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

- Tuzuvchi:** O‘zDSMI “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrasi professori, san’atshunoslik fanlari doktori Tojiboyeva Oltinoy Qosimovna
- Taqrizchilar:** Manas nomidagi Qirg‘iz-Turk universiteti professori, san’atshunoslik fanlari nomzodi, Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, CH.Aytmatov nomidagi Xalqaro Akademiya akademigi Kulmambetov Janish Osmanovich
- O‘zDSMI “Televideniye rejissyorligi” kafedrasi mudiri, san.f.n., dotsent. Fayziyeva Feruza Xojimurodovna
- O‘quv -uslubiy majmua O‘zDSMI Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2020 yil “29” yanvardagi 1-sonli bayonnomaga)

## MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	12
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	20
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	63
V.	KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	70
VI.	KEYSLAR BANKI.....	72
VII.	GLOSSARIY.....	77
VIII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	80



I. ISHCHI DASTUR

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

**“San’atshunoslikda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish”** moduli umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan, shu maqsadda belgilangan mavzular bo‘yicha tayyorlangan ushbu dastur orqali oliy ta’lim muassasalarida sohaga oid zamonaviy ta’lim va innovatsiya texnologiyalar, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, ilmiy faoliyatini muntazam yuksaltirish ko‘zda tutilgan.

Taqdim etilayotgan modulda mamlakatimiz san’atshunoslik fanining bugungi holati, zamonaviy yondashuv va tendensiyalarini ilg‘or xorijiy tajribalar bilan o‘zaro bog‘liqligi, aloqadorligi hamda uzviy munosabatlariga doir ma’lumotlar soha taraqqiyoti nuqtai nazaridan kelib chiqilgan.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

**“San’atshunoslikda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish” modulining maqsadi:** o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, xalqaro standartlar bilan tanishtirish, o‘qitishga kompetensiyaviy yondashuvni tadbiqu etish, o‘qituvchilarining tayyorgarlik darajasiga va oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlar bilimlari darajasiga qo‘yiladigan talablarni takomillashtirish, ta’limga ilg‘or xorijiy tajribalarni tadbiqu etish, ta’lim

bosqichlarida san'atshunoslikni o'qitish samaradorligini oshirish va intensiv egallash metodlarini ishlab chiqish, o'quv fani mazmunini loyihalashtirish, o'qitishda zamonaviy dars turlaridan foydalanish va interfaol usullarni qo'llash bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirishdan iborat.

### **"San'atshunoslikda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish" modulining vazifalari:**

"San'atshunoslik" (turlari bo'yicha) yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

- zamonaviy talablarga mos holda oliv ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;
- san'atshunoslik sohasining yangi davr muammolari bo'yicha ma'lumotlar berish va ularni qo'llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashni ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etishdir.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarining bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

San'atshunoslikda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish kursini o'zlashtirish jarayonida tinglovchilar:

- san'atshunoslikning rivojlanish tendensiyalarini, nazariy asoslarini, oliv ta'lim tizimidagi o'rnini, san'atshunoslikning dolzarb muammolarini, san'at sohasidagi turli zamonaviy uslublar, yo'nalish va tamoyillarni **bilishi** lozim;
- innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, san'at sohalari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar natijalarini amaliyatga tadbiq etish, san'atshunoslik sohasidagi innovatsiyalarni ilmiy-tadqiqot va o'quv jarayoniga tadbiq etish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim;

- san'atshunoslik fanlariga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish, san'atshunoslikning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini nazariy asosda o'quv jarayoniga tadbiq etish va san'atshunoslik fanlarini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribani qo'llagan holda o'quv jarayonini tashkil etish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyliги**

Mazkur “San'atshunoslikda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish” modulning mazmuni o'quv rejadagi “San'atshunoslikning dolzarb masalalari”, “San'atshunoslikda o'zbek musiqa merosining ahamiyati” va “San'atshunoslikning zamonaviy tendensiyalari” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta'limgagini o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta'limga muassasalarida o'qitiladigan “San'atshunoslik” (turlari bo'yicha) va uzviy o'zaro bog'liq boshqa fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni olib borish, ularning mazmunini yangi, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo'llash va talabalar bilimini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### **Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

<b>№</b>	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o'quv yuklamasi</b>			
		<b>Jami</b>	<b>Nazariy</b>	<b>Amaliy mashg'ulot</b>	<b>Ko'chma mashg'ulot</b>
1.	Respublika oliy ta'limga tizimida xorijiy tajribalarni o'rganish zaruriyati. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga – xorijiy tajribaning asosi sifatida.	2	2		
2.	Rossiyada teatr va kino ta'limgining o'ziga xosligi. AQShda san'at ta'limgining yetakchi xususiyatlari. Xorijda ta'limga integratsiyasi.	4	4		
3.	Yevropa mamlakatlarida san'at ta'limi tajribalari. Sharq mamlakatlarida madaniyat va san'at ta'limi.	4	4		

4.	San'atshunoslik yo'nalishlarining shakllanishi va taraqqiyot yo'li.	2		2	
5.	San'at ta'limida individual va differensial o'qitish tajribasining ahamiyati.	2		2	
6	Markaziy Osiyo respublikalarida san'at ta'limi tajribalari va o'zaro aloqadorlik masalalari.	2		2	
7	O'zbekiston san'atshunoslik fanining o'ziga xosligi, an'analarning davomiyligi, yangi tendensiyalarning paydo bo'lishidagi muhit, zaruriyat, istiqbol masalalari.	6			4
<b>Jami: 20</b>		<b>20</b>	<b>10</b>	<b>6</b>	<b>4</b>

### **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-mavzu. Respublika oliy ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni o'rghanish zaruriyati. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – xorijiy tajribaning assosi sifatida (2 soat).**

Respublika oliy ta'lim tizimida xorijiy tajribalarni o'rghanish zaruriyati. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – xorijiy tajribaning assosi sifatida. San'atshunoslikda xorijiy tajribalarni o'rghanishning maqsadi, vazifalari, nazariyasi va amaliyoti. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda san'at yo'nalishlarining o'qitishdagi ilg'or tajribalar, yetakchi tendensiyalarning xususiyatlari.

**2-mavzu. Rossiyada teatr va kino ta'limining o'ziga xosligi. AQShda san'at ta'limining yetakchi xususiyatlari. Xorijda ta'lim integratsiyasi(4 soat).**

Rossiyada teatr va kino ta'limining o'ziga xosligi. AQShda san'at ta'limining yetakchi xususiyatlari. Xorijda ta'lim integratsiyasi. Jahan miqyosida olib borilayotgan san'atshunoslik izlanishlarining yetakchi xususiyatlari. Rivojlangan mamlakatlarda san'at ta'limini amalga oshirishdagi o'ziga xoslik. Teatr va kino sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash borasidagi jahon tajribalari. Rossiyada san'at ta'limi. Amerika Qo'shma Shtatlarida san'at turlarini o'qitish masalalari. Kino mutaxassislar tayyorlashda Bolliwood rejissyorlik maktabi xususiyatlari.

**3-mavzu. Yevropa mamlakatlarida san'at ta'limi tajribalari. Sharq mamlakatlarida madaniyat va san'at ta'limi(4 soat).**

Yevropa mamlakatlarida san’at ta’limi tajribalari. Sharq mamlakatlarida madaniyat va san’at ta’limi. Ta’limni isloh qilish borasida jahonda olib borilayotgan izlanishlar. Ta’lim islohotining jahon miqyosidagi tashabbuskorlari. AQShda R.Reygen – ta’lim islohotchisi. Fransiyada F.Mitteran tashabbuskorligi. Buyuk Britaniyada M.Tetcher tashabbuskorligidagi ta’lim islohotlari. Islohotlarning tub mazmuni, mohiyati, ahamiyati. Tyutor, edvayzer, fasilitator, moderatorlar faoliyati.

AQSH, Germaniya, Yaponiya mamlakatlarida iqtidorga bo‘lgan munosabatning o‘ziga xosligi. Iqtidorni o‘rganish, aniqlash va u bilan ishlash xususiyatlari. Tabaqalashtirish. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning yetakchi jihatlari. Differensiallashgan ta’lim. Individual ta’lim. Ta’limda integratsiya masalasi. Dzyuku, kokoro, yebeku tushunchalari.

## **AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI**

### **1- Amaliy mashg‘ulot. San’atshunoslik yo‘nalishlarining shakllanishi va taraqqiyot yo‘li.**

San’atshunoslik yo‘nalishlarining shakllanishi va taraqqiyot yo‘li. San’at ta’limida iqtidor tushunchasi. Xorij ta’limida integratsiya masalasi. San’at ta’limida iqtidor tushunchasining mohiyati. Iqtidorni alohida o‘qitishdan maqsad va vazifalar. Integratsion o‘qish tajribalari.

### **2- Amaliy mashg‘ulot. San’at ta’limida individual va differensial o‘qitish tajribasining ahamiyati.**

San’at ta’limida individual va differensial o‘qitish tajribasining ahamiyati. Ta’lim modernizatsiyasida xorij tajribalarini o‘rganishning asosiy jihatlari. Xorijiy tajriba va respublikamiz ta’lim jarayonlari o‘rtasidagi umumiylilik va alohida jihatlar. Ta’lim modernizatsiyasining xususiyatlari. Sohaning SWOT tahlilini amalga oshirish.

### **3- Amaliy mashg‘ulot. Markaziy Osiyo respublikalarida san’at ta’limi tajribalari va o‘zaro aloqadorlik masalalari**

Markaziy Osiyo respublikalarida san'at ta'lifi tajribalari va o'zaro aloqadorlik masalalari. Markaziy Osiyoda san'atshunoslik turlari va o'ziga xosliklari. Milliy san'atimizga globallashuv jarayonining ta'sir qilishi.

## **KO'CHMA MASHG'ULOT MAZMUNI**

Modul bo'yicha mustaqil ishlar "Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" sohasi bo'yicha qisqa nazariy ma'lumotlar hamda ta'lim muassasasida hozirgi vaqtida bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot keltirilishi zarur. Modul doirasidagi mustaqil ta'lim mavzulari portfolio topshiriqlari ko'rinishida tinglovchilarga taqdim etiladi va bajariladi.

### **1-Ko'chma mashg'ulot(4 soat)**

#### **O'zbekiston san'atshunoslik fanining o'ziga xosligi, an'analarning davomiyligi, yangi tendensiyalarning paydo bo'lishidagi muhit, zaruriyat, istiqbol masalalari.**

O'zbekiston san'atshunoslik fanining o'ziga xosligi, an'analarning davomiyligi, yangi tendensiyalarning paydo bo'lishidagi muhit, zaruriyat, istiqbol masalalari. Ta'lim va tarbiya uyg'unligi. Sharqona ta'lim va tarbiyaning xususiyatlari. Berilgan namuna bo'yicha FSMU texnologiyasi asosida fikr-mulohaza almashish.

## **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rيلayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihiilar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

**Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo‘roni)** – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Metodning maqsadi: aqliy hujum vaqtida tinglovchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbولي va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o‘qib-o‘rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish, fikrlash inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoali aqliy hujum – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta’minlaydi. Butun o‘quv guruhi (20 kishidan ortiq bo‘lmagan) bitta muammoni hal etadi.

Ommaviy aqliy hujum – mikro guruhlarga bo‘lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

Har bir guruuh ichida umumiy muammoning bir jihatni hal etiladi.

**Namuna:** Guruhga muammoli vaziyat beriladi, misol uchun orkestrni tashkil etuvchi kollektivdagi psixologik vaziyat yomonlashib, konflikt chiqadigan darajaga yetib kelgan. Muammoni hal qilish bo‘yicha jamoali aqliy hujum, iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishi tashkillashtiriladi.

Bu fikrlar tanqid qilinmasdan, ular orasidan eng samaralisi, maqbولي, ya’ni vaziyatni normallashuvga olib kelishi mumkin bo‘lgan fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.

«**Keys-stadi**» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

**“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari**

Ish	Faoliyat shakli
-----	-----------------

<b>bosqichlari</b>	<b>va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'inining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari

1. *Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni (kichik va individual guruhlarda aniqlash)*
2. *"Monna-Liza" portretini ishlashda qahramonning ruhiy holatini ochib berishda rassomning mahoratini aniqlang. (guruhlarda tahlil yozma yoki og'zaki.)*

**Keys.** Leonardo da Vinci “Monna Liza” kartinasini chizayotganda asar qahramonining ichki dunyosini ochib bermaganida asar kartina darajasiga ko‘tarilarmidi?

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsija etiladi.

#### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

#### **Namuna.**

**Fikr:** “**Tarixiy yoki maishiy mavzudagi ko‘pqomatli kompazitsiya asarining g‘oyasi**”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgililar</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>	<b>3-matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“–” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaysidi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Metodning maqsadi: tinglovchilarda** tezlik, axborotlar tizimini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maqsadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yoki biror bir kartina yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va tinglovchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

### III. NAZARIY MATERIALLAR

**1-mavzu nazariy. Respublika oliy ta’lim tizimida xorijiy tajribalarni o‘rganish zaruriyati. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – xorijiy tajribaning asosi sifatida.**

**Reja:**

- 1.1. Rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi zamonaviy tajribalarni o‘rganishning maqsadi va zaruriyati.
- 1.2. San’at sohasini o‘qitilish xususiyatlari.
- 1.3. Yevropa mamlakatlari ta’lim tizimidagi o‘zgachalik.

**Tayanch iboralar:** san’at, ehtiyoj, talab, teatr, kino, tendensiya, innovatsiya, metod, metodologiy.

#### **1.1. Rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi zamonaviy tajribalarni o‘rganishning maqsadi va zaruriyati.**

San’atshunoslikning o‘ziga xos tomonlari uning subyekt va obyektlarida namoyon bo‘ladi. Subyektlariga san’at mahsuli yaratuvchilari, vositachilar va istyemolchilar kirsa, obyektlarini esa san’at mahsuli, tashkilotlar, shaxslar tashkil etadi.

San’at sohasigacha kirib kelishi o‘z o‘zidan turli nazariya va amaliyotlarni keltirib chiqardi albatta. Lekin san’atning mahsulot sifatiga urg‘u berishi boshlanishi degan fikrlar o‘rtasida asoslangan ziddiyatlar mavjud emas.

Bugungi kunda insoniyat hayotining ajralmas bir bo‘lagiga aylanib qolgan madaniyat va san’at sohalari necha ming yillik tarixga ega. O‘tgan davrlar mobaynida ularning har bir turi davrlar silsilasi, zamonlar zayli bilan bellashib, o‘z ortidan ko‘plab buyuk asarlar qoldirgan holda tarix yo‘llarini bosib bugungi kunimizga qadar yetib keldi. Ular ba’zan bir-biri bilan uzviy bog‘lanib, ba’zan esa bir-birlarini takrorlamagan holda shakllanib, sayqallanib, rivojlanib boraverdi. San’at tarixida esa yangidan-yangi janrlar, yangidan-yangi san’at turlari va asarlar yuzaga kelar ekan, moziy kitobining sahifalarida nafaqat davrlar san’ati, balki san’atkorlarining nomlari ham muhrlanib qoldi. Ko‘plab o‘z sohasining

buyuk ustozlari va fidoyilar olib borgan tinimsiz mehnatlar va izlanishlarning samarasi o‘laroq har bir san’at turi yildan yilga shakllanish, rivojlanish bilan birga tobora boyib, mukammallahish ham boraverdi.

Dunyo va davr bilan uyg‘un holda san’at sohasi ham bir maromda insonlar onggi, yurish-turishi va ayni kundagi hayot tarziga mos ravishda o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda san’at ta’limi va san’atshunoslikda o‘qitishning o‘ziga xos yangi tendensiyalariga suyanish davr taqozosiga aylandi.

Jahon san’atshunosligida rangtasvirning ijtimoiy-madaniy ahamiyati, uning rivojida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarni o‘rganishga qaratilgan keng doiradagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur jarayonda zamonaviy rangtasvirning badiiy potensialini ochishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar alohida o‘ringa ega. Xorijiy mamlakatlarda rangtasvirning o‘ziga xos shakllanish xususiyatlari, rivojlanish bosqichlariga oid asosiy yo‘nalishlar va tendensiyalarni aniqlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida san’atning barcha qatlamlarida o‘z aksini topgan madaniy integratsiya milliy rangtasvir sohasining zamonaviy badiiy jarayonlar bilan uyg‘unlikda rivojlanishi uchun zarur imkoniyatlar yaratdi. “Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek tasviri san’atiga ko‘plab yosh iste’dod egalari kirib kelayotgani, turli yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ijodkorlar, xusan, rassom va haykaltaroshlar, xalq ustalari ijodida yangicha mazmun va shakl, jahon san’at maydonida munosib o‘rin egallashga intilish tendensiyalari ko‘zga tashlanayotganini ijobiy baholash lozim”<sup>1</sup>. Shu jihatdan, O‘zbekiston rangtasvirida rivojlangan yangi tendensiyalar, ularning zamonaviy jarayonlar bilan aloqasi va milliy badiiy meros bilan uyg‘unligini tadqiq etish muhimdir.

Konseptual san’atning barcha ko‘rinishlari (perfomans, installyatsiya, videoart, foto art) O‘zbekiston rangtasvirida o‘ziga xos tarixiy-madaniy mantiq asosida o‘zlashtirildi. Uning rivojidagi qiyinchilik va murakkab o‘sish ko‘proq

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги ПҚ-3219-сон “Ўзбекистон Бадий академияси фаолиятини ривожлантириш ва янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги карори // Халқ сўзи. - 2017 й., 17 август.

madaniyatlarning o‘zgaruvchanligi, institut va fondlarni, moliyaviy qo‘llash loyihalarning mavjud emasligi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Bu badiiy jarayonda modernizmdan chiqish yoki undan voz kechish emas, balki estetik va konseptual, uslub va usullarga rangtasvirona yondashuv yotar edi. Mazkur tendensiya jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealarga ijodkorning erkin munosabati, yangicha fikrlash tarzini ifoda etib, butun bir avlodning yangicha ijodiy usullarni kashf etish sari intilishlarini aks ettirib, respublika san’atiga yangiliklar olib kirdi.

O‘zbekiston rassomlari uchun yangi tajribani egallash muhim va istiqbolli bo‘lib qoldi. Bir tomondan, bu tajriba respublika san’atini kommunikativ, innovatsion qilib qo‘ydi, uningsiz zamonaviy san’at rivojini tasavvur qilib bo‘lmaydi, boshqa tomondan rassomlar an’anani ham rad etmaydi, bu ularning asarlariga milliy o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi.

Loyihalar tahlili shunday xulosaga olib keladiki, ular konseptual san’at va an’anaviy merosning shakllarining tutashuv nuqtasini aniqladi va bu sintezda yangi falsafiy fikrlar va plastik to‘xtamlar yaratildi.

2000 – yillar boshida O‘zbekiston san’atida milliy an’analar va g‘arbiy son temporary art an’analarini uyg‘unlashtirgan avvalgilardan boshqacharoq moslik prinsiplari aniqlandi. Bu tendensiyaning turli variantlari V.Axunov, J.Uzmanov, A.Nikolayev, Y.Useinov, S.Tichin, B.Ismoilov kabilarning loyihalari misolida tahlil qilinadi. Masalan, videoart uchun islom tajribasi, sharq san’atida voqelikni belgilarga aylantirishi bilan bog‘liq mediativlik g‘oyasi manba bo‘lib qoldi.

O‘zbekistonning dolzarb san’atida g‘arb-sharq an’analarini o‘ziga xos uyqashuvi uning zamonaviy mosligi yangi prinsiplarini shakllantiradi.

Shunday qilib, azaliy qadriyatlar talqini, mavzular va obrazlarning yangicha ifodasida modernistik omillardan foydalanish zamonaviy milliy san’atda G‘arb va Sharq muloqotini o‘rnatishga xizmat qildi. Shu tariqa mazkur tendensiya milliy rangtasvirni umumdunyoviy jarayonlar bilan birgalikda erkin rivojlanish imkonini yaratib, o‘zining ichki estetik vazifalariga qaramay, postmodernizm bosqichi bilan bog‘liq umummadaniy jarayonga qo‘shildi.

Ular tomonidan yaratilgan loyihalar, ijodning uzviy qismi sifatida keng obrazlilik, plastik va stilistik omillar bilan ishlashga imkon berdi.

O‘zbekiston san’atida uslubiy o‘ziga xoslik, konsepsiya va g‘oyalarni original o‘zlashtirish ma’naviy qadriyatlar va an’analar uyg‘unligida aks etib, sontemporary artning yangi imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Madaniy xotira va an’analarning dolzarbliji bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etdi. Boshqa tomondan esa, umumdunyoviy jarayonlar bilan birgalikda erkin rivojlanish imkonini qo‘lga kiritgan hududiy san’at o‘zining “ichki” vazifalariga qaramay asta-sekin postmodernizm bosqichi bilan bog‘liq umummadaniy jarayoniga qo‘shildi.

O‘zbekiston son temporary artini tahlil qilishda shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh afsonaviy-poetikaning milliy qahramonlari va so‘fizm falsafasi bilan uyg‘unlashish yo‘li bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchisi zamonaviy globalizm, ekologiya, tarix tragediyasining umumiyligi universal g‘oyalariga asoslangan.

Rassomlar ijodiy loyihalarga o‘z konsepsiyasini singdirish bilan birga, an’ana va merosning ma’lum vizual va uslubiy belgilaridan voz kechdi. Ma’lum mavzular, g‘oyalarni ifoda etish usullari keng tizimli umumiyligini va madaniyatshunoslik tuzilmasi asoslari orqali aniqlandi. Shu tariqa barqaror dunyoqarashlar, arxetipik «matritsalar»dagi zamonaviy etnosning ko‘p asrlik tajribalari aks etgan o‘ziga xos izlanishlar kirib keldi. Mazkur jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, har bir milliy maktabda etnik madaniyat tuzilmasi asosida shakllangan an’anaviy estetik tizimlar va har bir milliy san’atning moslashish tajribasiga xos xususiyatlar XX asr davomida o‘zini yangi rakurslarda namoyish etib, postmodernistik tizimiga moslashib bordi.

Loyihalar taqdim etilgan Biennale va xalqaro ko‘rgazmalar san’atda o‘zgarmas hisoblangan qoidalar va chegaralar haqidagi tasavvurlar qanday o‘zgarganligini ko‘rsatib qo‘ydi. Obyektlar, installiyatsiyalar, perfomanslar va videoartlar u yoki bu holatda milliy moslik, qadimgi afsonalar, poetik syujetlarni talqini ifodachisi bo‘lib qoldi va milliy san’at uchun yangi imkoniyatlar ochib berdi. Bu rassomlar asarlarini mazmunning o‘ziga xosligi, qabul qilingan texnologiyalar shakllarning mustaqil talqini ajratib turdi. Boshqa tomondan, erkin rivojlanish

huquqini qo‘lga kiritgan milliy san’at “ichki” vazifalarni bajarib, vaqt bilan jahon badiiy jarayoniga kirib bora boshladi.

O‘zbekiston zamonaliv konseptual san’atida shakllangan yangi tendensiyalar o‘ziga xos yangi eksperimentlarni qamrab oldi va Yevropa zamonaliv san’atiga taqlid qilmaydigan original ifoda tilini yaratdi. Bu jarayon tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tasviriy san’ati yetakchi ijodkorlari contemporary art yangi tendensiyalarini o‘zlashtira oldilar, bu bilan badiiy jarayonga turtki berdilar.

Bu jarayon milliy san’atni jahon san’atiga olib kirdi va ayni paytda an’anaviy dunyoqarashni va milliy merosni yangi darajaga ko‘tardi.

Yangi video texnologiyalari, installyatsiyalarga murojaat, rangtasvirchilarni konseptual san’atga o‘tishi dissertatsiyaning ushbu bo‘limida ko‘rib chiqilayotgan nafaqat respublikadagi vaziyatga, balki butun sobiq sovet hududidagi jarayonga xosdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, O‘zbekiston aktual san’ati va contemporary artni jahon badiiy jarayonining ajralmas qismi, o‘z davri va milliy madaniyat vazifalariga mos keluvchi san’at sifatida qarash mumkin.

O‘zbekistonning liberal madaniy siyosati sharoitida yangi tendensiyalar yosh rassomlar tomonidan faol o‘zlashtirilmoqda.

Respublikada aktual san’at imkoniyatlarini ochishga sharoit yaratildi. Bu axborotlarni bemalol olish, xalqaro zamonaliv san’ati biyennalelarni o‘tkazish, zamonaliv san’at markazlarini ochish, yosh rassomlar uchun ta’lim va o‘zaro tajriba almashish dasturlarini yaratishda ko‘rinmoqda.

## **1.2. San’at sohasini o‘qitish xususiyatlari.**

San’atning kino va teatr yo‘nalishi bo‘yicha xorijiy ta’lim metodikasi haqida gapirar ekanmiz, avvallo Rossiya ta’lim tizimiga to‘xtalib o‘tish joiz. Chunki o‘zbek kino va teatr san’ati rus maktabi ta’sirida vujudga kelgan. Shu jihatdan ham u bizga qaysidir ma’noda mazkur yo‘nalish bo‘yicha ta’lim beruvchi boshqa ko‘plab o‘qitish metodikalaridan ko‘ra yaqinroq turadi.

Rossiyada kino madaniyati ancha oldin vujudga kelgan. Maktab-oliygochlarning o‘quvchi-talabalari turli xil to‘garak va klublarda madaniyat hamda san’at sohasi bo‘yicha nazariy, shu bilan birga amaliy bilimlarini oshirganlar. Ammo bu vaqtarda aynan shu sohaga ixtisoslashgan maxsus maktablar bo‘lmagan. Mediya sohasi kundan-kunga rivojiana borar ekan mazkur yo‘nalish bo‘yicha maxsus bilimga ega bo‘lgan soha vakillariga kundan kunga ehtiyoj orta boshladi. Nihoyat, 1919 yilda dunyoda birinchi bo‘lib Moskva shahrida davlat kino maktabi vujudga keldi. Ushbu maktab sobiq shaxsiy kvartiraning ikki xonasidan iborat bo‘lib, o‘shanda birgina yo‘nalish, u ham bo‘lsa, aktyorlik yo‘nalishi bo‘yicha tanlov e’lon qilingan edi. Talabalar emotsional plastika, raqs, mimika, sahna jangi, akrobatika, ruhiy va jismoniy mashqlar kabi darslardan saboq oladilar. Vladimir Gardin, Lev Kuleshov, Eduard Tisselar kabi namoyondalar bu maktabda dars bergen ilk ustozlar sanaladi.

Talabalar o‘quv texnikasi bo‘lmagani uchun oddiy deraza romini kino ekran deb faraz qilib rol ijro etganlar. 1920 yilda kino maktabda rejissyorlik fakulteti tashkil topib, unda atoqli insonlardan biri Sergey Eyzenshteyn ustozlik qila boshlaydi. Uning leksiyalarini hatto o‘qituvchilar ham tinglashgan.

1934 yildan boshlab kino maktab butun Rossiya davlat kinomatografiya instituti (VGIK) ga aylanib, ma’lum vaqt M. Gorkiy nomidagi kinostudiya binosiga joylashadi. 1955 yilga kelib VGIKning barcha o‘quv auditoriyasi hozirgi instituti binosiga ko‘chadi. Lekin yana bir necha yil kinopavilyonlar M. Gorkiy nomodagi kinostudiyyada qoladi. 1986 yildan VGIK S. A. Gerasimov nomi bilan atala boshlaydi. 1992 yilda S. A. Gerasimov nomidagi Butun Rossiya davlat kinomatografiya universitetiga aylanib, Rossiya Federatsiyasida davlat oliy ta’lim muassasi va oliydan so‘ng professional ta’lim muassasasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Lev Kuleshov, Sergey Eyzentshteyn kabi jahonga mashhur kino arboblar VGIK ning taraqqiy etishiga o‘z xissalarini qo‘shdilar. 2008 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, VGIK bitiruvchilari dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlarida kinomatografiya va televide niye sohalarida rejissyor, operator, ssenarist, aktyor, rassom sifatida faoliyat yuritmoqda.

VGIK da o‘ziga xos o‘qitish metodikasi mavjud bo‘lib, u o‘zining samaradorligi bilan ajralib turadi. Ushbu metodika talabalarga o‘qish davrida turli xil ijodiy vazifalar berishga, nazariy tahlil va ularni amalda tatbiq qilish yo‘llarini ishlab chiqishga va, talabalarda moslashuv hususiyatini rivojlantirishga asoslangan.

Shu bilan birga, ijodiy vazifalar talabalarda kreativ yondashuv, nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan o‘zaro bog‘lashga asoslangan. Vazifalar talabalar tomonidan individual kichik guruh va butun guruh holatida bajarilishga mo‘ljallab, taqsimlangan. Mashg‘ulotlar talabalarga singdirilishi uchun takrorlanib va har gal vazifalar murakkablashib borishi darkor.

VGIK metodikasi bir necha bosqichga bo‘linadi:

**1. Adabiy-imitatsion bosqich.** Bunda talabalarada bir material tanlab yoki yozib, uni tahlil qilib, uning mavzusi, syujeti, qarama-qarshiliginini aniqlab chiqishadi.

**2. Teatrlashgan shart-sharoit yaratish bosqichida** esa talabalar tanlangan inssenirovkani sahnalashtirishga o‘tadilar.

**3. Ifodaviy-imitatsion bosqich** bo‘lib unda sahnalashtirilgan asar uchun afisha, fotokollaj tayyorlash o‘rgatiladi.

**Birinchi bosqichda** talabalar ssenariy ustida ish olib boradilar. Avvalambor 3-5 daqiqali qisqa metrajli film ssenariysi yozishga harakat qilib ko‘radilar, keyin uni tahlil qiladilar. Ssenariy tahlil qilingandan so‘ng u asosida rejissyorlik ssenariysini yozishga o‘tiladi. Ssenariy kadrlarga bo‘lib chiqiladi. Bu ishlar talabalar tomonidan bajarilayotganda ustozlar konsultant vazifasini bajaradilar. Tanlangan asarlar guruh davrasida muhokama qilinadi. Bu bilan talaba o‘zi tanlagan asarining dolzarbligini isbotlab berishga o‘z fikrini himoya qilishga o‘rganadi. Bu kelgusida kino tanqidchilar va jurnalistlar oldida o‘zini q anday tutishga va muomala qilishga tayyorlaydi.

**Ikkinci bosqichda** esa talabalar amaliy ishga o‘tadilar. Tayyor ssenariy asosida tasvirga olishlari yo‘lga qo‘yiladi. Rollar o‘zaro taqsimlanadi. Rejissyor esa guruhni boshqarishga o‘tadi. Bu bo‘lajak rejissyorlarni kelajakda tasvirga

olish guruhi bilan ishlashga, amaliy tayyorlaydi. Ularni nimalarga e'tibor berish kerakligiga o'rgatdi. Shu bilan birga guruhni ishga jalg qilib ular bilan til topishishga, ularga qanday qilib to'g'ri vazifa yuklashga o'rgatadi. Bu rejissyorlarni kelajakda tasvirga olish maydonchasiga tushib qolganlarida o'zlarini yo'qotib qo'ymasliklari uchun yordam beradi.

Teatrlashgan shart-sharoit yaratish bosqichida yana bir usul qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Unga ko'ra bir ssenariy bir nechta kichik guruhga beriladi. Har bir guruh tanlangan asarni o'zicha talqin qilib tasvirga oladi. Bu talabalar o'rtasida do'stona raqobat uyg'otib ularni ko'proq izlanishga va ijod qilishga undaydi. Talabalar kim o'zarga ijod qilar ekan, bir-biriga o'xshamagan topilmalar topishga harakat qiladilar. Bu esa talabalar fantaziyasining kengayishiga olib keladi. Bu jarayonda o'qituvchi har bir guruhga xolisona maslahat berib, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatib boradi. Bu bilan o'qituvchi talabalarning mavzudan chetga chiqib ketishlarining oldini oladi. O'qitish metodikasining ikkinchi bosqichi yakunida har bir kichik guruh o'z ishini namoyish etar ekan, o'zaro muhokama qilinadi: qaysi guruh asarning qaysi qismida qanday tasvirga olish uslubini tanlagan? Qanday usul bilan yondashilgan? Kim qanday talqin qilgan? Va hokazolar ko'rib chiqiladi.

O'zaro bahs-munozara orqali ular fikr almashsalar, bir-birlarining filmlarini ko'rib esa tajriba almashadilar. Bir-birlarining xatolari orqali amaliy malaka orttira boshlaydilar.

**Uchinchi bosqich** ifodaviy-imitatsion bosqichda esa talabalar o'zlari tasvirga olgan ishni ommaga yetkazish yo'llarini o'rganadilar. Bunda ular tayyor bo'lgan filmni reklama qilish, sotish hamda tovar sifatida iste'molchilarga o'tkazish bo'yicha saboq oladilar. Talabalar bu bosqichda film uchun reklama, turli xil afishalar, rasmlar, kollajlar tayyorlashni o'rganadilar. YA'ni ular o'z ishlarini bozorga qanday qilib taqdim etish kerakligi bo'yicha yo'l-yo'riq oladilar. Bu albatta ularga kelgusi ishlarida asqotadi. Chunki hozirgi kunda nafaqat ijod qilib san'at asari yaratishni bilish kerak, balki uni ommaga taqdim qilishni ham bilish darkor. Kimning taqdimoti

yaxshiroq chiqqanini esa o‘quv teatriga tashrif buyurgan tomoshabinlardan bilish mumkin bo‘ladi.

Har uchchala bosqich yakunida eng yaxshi deb topilgan ijodiy ishlar turli xil festivallarga tavsiya etiladi. Bu esa o‘z o‘rnida talabalarni rag‘batlantirib, yanada ko‘proq izlanishlariga turtki bo‘ladi.

VGIK o‘qitish metodikasi avvalambor shaxsni shakllantirishga asoslangan. Unga ko‘ra shaxs individual rivojlanishi kerak. Shu bilan birga butun auditoriyada ijodiy yondashuv xususiyatini shakllantirib, san’at borasida nazariy chuqur bilim berishga qaratilgan. Talabalarga sensorli tarbiya berish bilan ularni kelajakda san’at sohasida o‘zini yo‘ qotib qo‘ymaslikka va janrlar xilma-xilligi va tematik repertuar oqimida adashib qolmaslikka erishiladi. Umuman, VGIK metodikasiga ko‘ra talabalar ijodiy mustaqil fikrashga o‘rganadilar. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘l boshlovchi vazifasini bajaradi. Bu esa har bir oliv o‘quv yurtining bosh maqsadidir.

### **1.3. Yevropa mamlakatlari ta’lim tizimidagi o‘zgachalik**

San’atshunoslik va keng olib qaraganda, gumanitar fanlarni o‘qitishning xorij tajribasi bizdagi o‘qitish sistemasiga o‘xshaydi va ayni paytda, tafovutli o‘rinlariga ham ega. Aynan yangi texnologiyalarning o‘qitish jarayoniga jadal kirib kelishi xorijiy mamlakatlardagi o‘qitish usulublari va sistemasini takomillashtirish, ba’zi jihatlarni o‘zgartirishlarni talab etadi.

O‘qituvchining kompyuter vositalaridan keng foydalanishi darsning samaradorligini oshirib boradi. Shunga qaramasdan o‘qituvchining darsdagi o‘rni va salmog‘ini saqlab turishga hamma vaqt hamma joyda e’tibor qaratiladi. Ba’zi xorijiy mamlakatlarda talabalar ma’ruzaga kirmasdan o‘qituvchi tomonidan avvaldan talabalar uchun maxsus tayyorlangan ma’ruza matni bilan tanishish orqali ham imtihon topshirishlari mumkin. Ayni holat talabaning zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Xorij tajribasiga ko‘ra, har bir ma’ruza uchun videomateriallar tayyorlagan bo‘lib, ular ma’ruzadagi matnni tasvirdagi ko‘rinishi sifatida ahamiyatga ega. Talaba darsdan so‘ng kutubxonaga borib, ayni videomateriallarni tomosha qilish orqali

darsda olgan ma'lumotlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega. Muayyan bir darslarni bilan bog'liq bilimlarni talabalar kutubxona va xususiy shug'ullanish orqali o'zlashtirishlari imkoniyati ham mavjud. Shunga qarmay, talabalarning barchasi qatnashishi zarur bo'lgan alohida darslar ham mavjud. Axborot texnologiyalari ta'limning turli yangi ko'rinishlarini taklif etmoqda, xususan keyingi vaqtarda modulli ta'lim tizimida majmuaviy yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta'limning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo'ldi.

"Blended learning" (aralash ta'lim) haqida shunday fikr bor – ushbu ta'lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta'limni tashkil etishda va ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an'anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv talabani charchatmaydi va o'qishga bo'lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala - tanlangan uslubiyotlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash va kam harajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.



**Vebinar.** Bugun masofaviy ta'limning yana bir turi «webinar» (1998 yilda bu termin muloqatga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o'qitishni web –texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda

tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni yetkazadi, balki ular bilan muloqotga kirishish (og‘zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya’ni seminar ko‘rinishida fikrlarni almashish, o‘z fikrini bayon etish mumkin.

Boshqacha qilib aytganda internet tarmog‘i asosida tashkil etiluvchi ta’lim ham subyekt-subyekt paradigmasi o‘tmoqda.

**Vebinar usulida** dars seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo‘lgan tinglovchilar bilan audio video (va avvalgi postlarda sanab o‘tilgan ko‘plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo‘lsa-da, butun o‘quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o‘zaro uzviy bog‘lanmaydi, ya’ni alohida-alohida bir martalik darslar bo‘ladi deyish mumkin.

**Evristik o‘qitish metodi.** Evristik o‘qitish metodini qo‘llashda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo‘lgan masalani aniqlab oladi. O‘quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o‘zlashtirib oladilar va uning yechimi bo‘yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O‘rnatilgan masalani yechish davomida o‘quvchilar ilmiy bilish metodlarini o‘zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko‘nikmasi tajribasini egallaydilar. Ta’lim jarayonida tadqiqotchilik o‘qitish metodini qo‘llashda o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O‘qituvchi faoliyatining tuzilmasi

- o‘quvchilarga o‘quv muammosini taklif etish;
- o‘quvchilar bilan hamkorlikda tadqiqot masalasini o‘rnatish;
- o‘quvchilarning ilmiy faoliyatini tashkil etish

O‘quvchi faoliyatining tuzilmasi

- o‘quv muammolari mohiyatini anglab olish;
- tadqiqot muammosini o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan birgalikda o‘rnatishda faollik ko‘rsatish;
- ularni yechish usullarini topish;
- tadqiqiy masalalarni yechish usullarini o‘zlashtirish.

Evristik metod o‘qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishni taqozo etadi. Buning natijasida o‘quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma’lum holatlarda qo‘llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang‘ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o‘qituvchilarning fikrlariga ko‘ra birmuncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzlucksiz ta’lim tizimiga shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni faol joriy etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo‘nalishdagi loyihalarni tayyorlash o‘ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Shunga qaramasdan bu tasnif mакtab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan<sup>13</sup>. Shuningdek, buyuk didakt I.Y.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot ham amalga oshirilgan.

Xorijiy ta’limda so‘nggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi.

**Tyutor - ( Tutorem-lotincha)** ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi.



Ba’zi hollarda ma’ruza o‘qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog‘lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma’ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallahsha maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

**Edvayzer (advisor)-fransuzcha “avisen”“o‘ylamoq”**) tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

**Fasilitator** - (ingliz tilida *facilitator*, lotincha *facilis*-yengil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

**Moderator-qabul** qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma’lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Bizning ta’limda ushbu faoliyatlarning hammasini o‘qituvchi bajaradi va pedagog yoki o‘qituvchi deb yuritiladi.



### **Nazorat savollari**

1. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda san’at ta’limining yetakchi xususiyati nimada?
2. VGIK ta’lim metodikasi qanday tuzilgan?
3. Kino mutaxassislarini tayyorlashda Rossiyada necha bosqichli tizim mavjud?
4. Akmeologik yondoshuv deganda nimani tushunasiz?
5. Vebinar nima?
6. Tyutor, edvayzer, fasilitator, moderator tushunchalari nimani anglatadi?

## **2-mavzu. Rossiyada teatr va kino ta’limining o‘ziga xosligi. AQShda san’at ta’limining yetakchi xususiyatlari. Xorijda ta’lim integratsiyasi.**

### **Reja:**

- 2.1. Amerika Qo‘shma Shtatlarida san’at ta’limi
- 2.2. San’atshunoslikning xorij tajribalaridagi alohida jihatlar

**Tayanch iboralar:** ta’lim, kino san’ati, rejissyor, san’atkor, ijod, ijodiy ustaxona, o‘quv studiyalar.

### **2.1. Amerika Qo‘shma Shtatlarida san’at ta’limi.**



1994 yili AQShda “Maqsadlar 2000: Amerikaning ta’lim akti” nomli qaror qabul qilinib, unga ko‘ra, “Sa’nat” fani o‘rta maktabning barcha bosqichlarida o‘tilishi shart deb belgilangan. Hozirgi kunga kelib 50 ta shtatdan 48 ta shtat maktablari o‘qish planida san’at majburiy o‘qitiladigan fanlardan biriga aylangan. Amerika oliy o‘quv yurtlariga kelsak, ularda bu yo‘nalish uzoq yillar davomida rivojlanib kelgan. 60 yillardan boshlab deyarli har bir oliygohda san’at yo‘nalishi bo‘yicha fakultetlar mavjud bo‘lib, ularda jurnalistika, kommunikatsiya, kinematografiya, san’atshunoslik, madaniyatshunoslik kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim berilib kelgan. Amerika Qo‘shma Shtatlarda yuzlab institut va universitet bo‘lgani uchun aynan bir oliygohda to‘xtalib bo‘lmaydi. Umumiy media ta’lim taraqqiyotini quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

- 1) media ta’limning ilk rivojlanish bosqichi (yigirmanchi asrning 60-70 yillari);
- 2) media ta’limining asosiy namunaviy ko‘rinishining shakllanish bosqichi (yigirmanchi asrning 80 yillari);
- 3) zamonaviy media ta’lim bosqichi (yigirmanchi asrning 90 yillari va yigirma birinchi asr);

AQShda media ta’limi keng miqyosda o‘qitiladi. Ayniqsa, kinomatografiya sohasi tezlik bilan rivojlangani bois bu yo‘nalish bo‘yicha ta’lim berishga nafaqat

davlat, balki xususiy korxonalar ham qiziqib qolishadi. Kinematografiya yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitish ham davlat, ham xususiy korxonalar mablag‘ bilan ta’minlanib turadi. Shu boisdan ham kinofakultetlarida kino yaratish uchun kerak bo‘ladigan barcha texnik jihozlarning eng so‘ngi nusxalari talabalar ixtiyoriga topshiriladi.

Talabalar nazariy va amaliy ijod qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi.



Amerika o‘qitish metodikasining asosiy e’tibori talabalarning amaliy bilim olishiga qaratilgan. Unga ko‘ra kinomatografiya yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim oladigan talabalar avvalam bor kino yaratishning barcha bosqichlarida qo‘llaniladigan texnik jihozlar bilan mukammal ishlashni bilishlari shart. Bunga talabalarning kino kamera bilan ishlashlari (ular operator, rejissyor, montajchi bo‘lishlaridan qat’iy nazar) kiradi. Chunki aksariyat AQSH ta’lim sistemasi shunga qaratilganki, unga ko‘ra kino yunalishi bo‘yicha taxsil olayotgan talaba ikki-ikki yarim yil davomida operatorlik mahorati, montaj qilish mahorati, ssenariy yozish, mahorati, rejissyorlik mahorati bo‘yicha o‘qitiladi. YA’ni kelajakda rejissyor bo‘lmochi bo‘lgan talaba ham professional operator, ham montajchi, ham ssenarist bo‘lishi talab etiladi. Bu kino sohasi bo‘yicha

mukammal kadr yetishishiga olib keladi. Bundan tashqari, bu metodikaning yana bir afzal tomoni shundaki, kino sohasiga qiziqib topshirgan talaba o‘qish jarayonida kinoning qaysi jabhasi borasida ko‘proq qobiliyati borligini aniqlab, keyinchalik aynan shu soha bo‘yicha faoliyat yuritishi mumkin bo‘ladi. So‘nggi yillarda har bir talaba o‘zidagi moyillikka qarab operatorlik, rejissyorlik, ssenaristlik, montaj ustaligi sohalaridan birini tanlab bir-bir yarim yil davomida aynan tanlangan mutaxassislik bo‘yicha ilmini oshirishi mumkin bo‘ladi.

Amerika o‘qitish metodikasi talabalarga nafaqat amaliy texnik bilim berishga qaratilgan, balki ularga nazariy bilimlar berishni ham o‘z ichiga oladi. Bunga ko‘ra talabalar kino va umuman, san’at sohasiga doir barcha terminologiya bilan tanishib chiqadilar. Ular kinodan kinoni ajratishga o‘rganadilar. YA’ni AQSH kino biznesida urf bo‘lgan yengil-yelpi filmlaridan haqiqiy kino san’at asarini ajratib olishni o‘rganadilar.

Bu o‘qituvchi boshchiligidagi butun guruh o‘rtasida turli xil filmlar tomosha qilib ularni muhokama qilish orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchilar bo‘lg‘usi kinoijodkorlarda estetik didning shakllanishiga katta ahamiyat beradilar. Chunki Amerika kinomatografiya institutlarining barchasi haqiqiy san’atni qadrlaydigan va kelajakda “artfilm”, ya’ni san’at asari deyish mumkin bo‘lgan filmlar yaratadigan ijodkorlarni yetkazishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ygan.

AQSH metodikasiga ko‘ra talabalarning badiiy asar tanlashiga ham katta e’tibor beriladi. Chunki har qanday kino asari faqat san’at asari bo‘libgina qolmay, u ulkan mablag‘ tikilgan loyiha ham hisoblanadi. Tanlangan proyekt kutilgan moddiy foyda olib kelishini ham ko‘zda tutilish kerak. Shuning uchun talabalarga nafaqat badiiy jihatdan mukammal asar, balki undagi mavzu tomoshabinlarni jalb eta olishi mumkin bo‘lgan asar tanlash bo‘yicha yo‘l-yuriqlar beriladi. Bu bilan bo‘lajak kinoijodkorlar omadsizlikka uchraydigan proyektlarga qo‘l urmasliklari borasida ogohlantiriladilar. Bunda talabalarga film tasvirga olish uchun asar tanlashda o‘z tomoshabininini aniqlab olish darkorligi uqtiriladi. Unga ko‘ra tomoshabinning yoshi, kelib chiqishi va qiziqishlari inobatga olinib, so‘ng asar mavzusi tanlanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari kino mutaxassisligi bo'yicha o'qitish metodikasi texnika bilan ishlay oladigan, nazariy jihatdan bilimdon, haqiqiy san'atning farqiga boradigan va kelajakda moddiy va ma'naviy jihatdan muvaffaqiyatga erisha oladigan kino asarlar yaratishi mumkin bo'lgan kadrlar yetishtirishga qaratilgan.

## **2.2. San'atshunoslikning xorij tajribalaridagi alohida jihatlar**

San'atning barcha turlarini san'atshunoslik nuqtai nazaridan va ularning o'ziga xos xususiyatlarini anglash, ommabop tarzda tahlil va targ'ib etish malakasini egallahsha qaratilgan nazariy, ijodiy va amaliy masalalar qamrab olingan. Barcha turdag'i mashg'ulotlari kompleks holda olib borilishi jahon san'atshunosligi amaliyotida qabul qilingan. Shunga rioya qilgan holda dasturda amaliy, seminar mashg'ulotlarni, yakka mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar har bir semestrga yaxlit holda ishlangan.

Modomiki yuqorida bo'lajak san'atkorlarga ta'lim berishdagi tajribalar borasida so'z yuritar ekanmiz, o'ziga xos tajribalarni kuzatib o'tish o'rinnlidir. Bolliwood rejissyorlik maktabi va uning o'ziga xos uslubiyati. Garchi kimlarningdir nazdida, hind kinosi faqat romantika, fantastika, o'ldim-kuydim yoki yolg'on-yashiq syujetdan iboratdek tuyulsada, uning zamirida g'oyat ulkan rejissyorlik maktabi bor. Shuning uchun ham hind kinolarining barchasi Yer kurrasini o'rab olgan. Shuning uchun ham dunyoning har bir burchagida bu millat, bu ijod maktabiga tegishli bo'lgan filmlarning minglab muxlislarini topish mumkin. Demak, taqdim etilayotgan filmlarning elga manzur bo'lishiga asos bor. Axir Hindistonni dunyoga tanitgan xuddi shu kinolari emasmi?

Bolliwood deb nomlanuvchi hind kinosanoatining rejissurasi chindanda yuksak. Uning faqat o'zigagina xos bo'lgan ko'plab xususiyatlari mavjudki, ulardan boshqa xalqlar, jumladan, biz o'zbek millati rejissyorlari ham ulkan bilimlar olishi mumkin. Ammo bu rejissyorlik maktabiga negadir ko'pchilik yuqorida ta'kidlaganimdek, yengil nigoh bilan qaraydi. Balki, chindan ham ularning oddiy va sodda syujet asosidagi filmlari oson tuyulishi mumkin. Ammo

xuddi shunday “yengil-yelpi” ijod mahsulini hindlarning o‘zidan boshqa hech qaysi rejissyorlar eplab yarata olmagan. Bunga harakat qilganlarning urinishlari esa muvaffaqiyatsiz yakun topgan. Demak, buning uchun o‘sha oddiylik zamirida yotgan mukammallikni anglab olmoq kerak.

Bolliwood kinosanoatining tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. Garchi bu o‘lkada ham dunyoning boshqa mintaqalari bilan bir paytda kino olish boshlangan bo‘lsada, uning muvaffaqiyatlari boshqa davrga to‘g‘ri keldi. Bu davr buyuk Kapurlar sulolasining asoschisi Raj Kapur davri edi. Chindan ham bu insonni hind kinosanoati va rejissura maktabining asoschisi deya baholash o‘rinli. Chunki aynan uning ixtirolari, topilmalari va fantaziyasi asosida ekranlar yuzini ko‘rgan filmlar hozirgi kunda Bolliwood deb nomlanuvchi buyuk kinosanoatga tamal toshini qo‘ydi. Uning olib kirgan yo‘nalish va yondashuvi bu halq kinolarining ramzi hamda asosiga aylanib qoldi. Shuning uchun ham Bolliwood rejissyorlik maktabi haqida gapirishdan oldin uning asosichi Raj Kapur bosib o‘tgan ijod yo‘liga batafsil to‘xtalish shart.

Buyuk Raj Kapur 1924 yilning 14 dekabrida artistlar oilasida dunyoga kelgan. Uning bobosi ham aktyor bo‘lgan. Rajning otasi Pritxviradj Kapur esa Bombey (hozirgi Mumbay)dagи «Pritxvi-tietrs» teatrining ho‘jayini va bosh rejissyori edi. Shuning uchun ham o‘zining barcha farzandlari (Raj, Shammi va Shashi) da aktyorlik sohasiga muhabbat uyg‘ota oldi.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, chindan ham Rajning san’atkorlar oilasida tug‘ilgani va shu muhitda voyaga yetgani, uning kelajakdagi barcha muvaffaqiyatlariga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga aynan mazkur omil uning san’at sohasa ko‘plab og‘ir kun kechirishiga ham asos bo‘lgandi.

Raj birinchi marta olti yoshida «Pritxvi-tietrs» teatri sahnasida rol ijro etdi. Bu san’at maskani bo‘lajak yulduz uchun haqiqiy maktab vazifasini o‘tadi. Boisi teatr truppasida ishchilar ko‘p bo‘lishiga qaramay, Pritxviradj o‘z o‘g‘li Rajga g‘oyat qattiqko‘llik bilan munosabatda bo‘lgan va unga qat’iy talablar qo‘ygandi. Bu yerga Raj faqat aktyor sifatidagina kelib ketmas, balki sahna ishchisi, chiroqchi va farrosh vazafalarini ham bajarardi. O‘n to‘rt yoshga

kirganida Rajning teatr aktyor sifatidagi bilimi, iqtidori va mahoratiga, hattoki, katta-katta artistlar ham havas bilan qaray boshladilar.

Ammo otasidan farqli ravishda Raj kelajagini teatr emas, aksincha o‘zini g‘oyatda qiziqtiradigan va maftun etib kelgan kino san’ati bilan bog‘ladi. U 1935 yilda «Revolyusiya» filmida epizodik rol o‘ynadi. Shundan so‘ng u «Bombey Tokiz» kinostudiyasida rejissyor yordamchisi vazifasida faoliyat yurita boshlaydi. Shu bilan bir vaqtda «Pritxvi-tietrs» teatrida aktyor va bezakchi rassom bo‘lib ham ishlardi.

1946 yilda Raj o‘zining ilk rejissyorlik filmi «Alanga»ni suratga olishga bel bog‘laydi. Filmdagi bosh qahramon yigit rolini o‘zi, qahramon qiz rolini esa do‘sti, o‘n sakkiz yoshli Nargis ijro etadilar. Tomoshabinlar va tanqidchilarning qo‘llab-quvvatlashlari hamda ko‘maklari bilan Raj o‘zining shaxsiy kinostudiyasini ochishga ahd qiladi.

Dastlab «Raj Kapur filmz» bilan birga ishlashni xohlovchi hamkorlar juda kam edi. Kerakli ish qurollari va ishchilarning kamligiga qaramay ular bir yoqadan bosh chiqarib, tushkunlikka tushmay, aksincha zavq-shavq bilan ishga kirishadilar. «Suratga olish paytlarida ko‘pincha yeb-ichish va uplash kerakligini ham yodimizdan chiqarib qo‘yardik», deya eslagandi keyinchalik Raj Kapur. Rassomlar, bastakorlar, xizmatchilar va qo‘srimcha ishchilar ommaviy sahnalarda ham ishtirok etar, ba’zan esa kichik-kichik rollarni ham o‘ynashlariga to‘g‘ri kelardi. Rajning o‘zi esa ssenariy muallifi, rejissyor, prodyuser, administrator va filmning asosiy qahramoni edi. Unga har doim Nargis ko‘makdosh bo‘lib kelgan.

«Alanga»dan so‘ng «Yomg‘irlar mavsumi» filmi ekran yuzini ko‘radi. Bu film haqida hind tanqidchilaridan biri shunday yozgan edi «...filmda Raj va Nargis ko‘zni oladigan daraja olamga nur sochardi – xuddi dunyoga million-million chiroqlar o‘rnatalgani kabi yorug‘ edi!»

Va nihoyat Kapur o‘zning uchinchi filmini suratga oldi va misli ko‘rilmagan shon-shuhralar og‘ushida qoldi. Bu film o‘sha, afsonaga aylangan, hali-hamon muxlislar uchun sevimli bo‘lib qolgan «Daydi» edi. Raj mazkur film uchun ishtirokchilarni nihoyatda ziyraklik bilan saralab oladi. Suratga olish

ishlari 3 oy davom etadi. Bu vaqt mobaynida hind klassik musiqa va raqslarini o‘rganish, murakkab, qimmatbaho dekoratsiya qurish ishlari ham amalga oshiriladi. Bir qancha ko‘rinishlar katta studiyalarning pavilyonida ham suratga olinadi.

1951 yili film Hindiston ekranlariga chiqadi va ko‘z ko‘rib, qulqoq eshitmagan muvaffaqiyatdan keyin uni dunyoning boshqa mamlakatlarida ham namoyish eta boshlaydilar. Film Kann kinofestivalida oliv mukofotga munosib ko‘riladi. Raj Kapurning Bombeydagagi kichkina studiyasini ko‘rgani dunyoning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan sayohlar dengiz kabi oqib kela boshlaydilar. Bu vaqtda Raj haqida ham hamma joyda yozib, gapira boshlashgan edi.

Filmning muvaffaqiyati shunda ediki, nima qilib bo‘lsa ham haqiqiy odam bo‘lishni istagan yosh qahramon – yosh yigitga taqdirning bir qator sinovlaridan so‘ng omad va baxt kulib boqadi. Bunday rng-barang, ta’sirchan va ishonib bo‘lmas voqeani Raj o‘zining mislsiz iste’dodi orqali filmga shunday tabiiy va ustalik bilan singdiradiki, tomoshabinni ishonishga va ta’sirlanishga majbur etadi. Uning daydisi hayotni sevadigan, optimist, sodda mug‘ombir, g‘ayratli, ishonuvchan va shu bilan birga himoyasiz edi. Qo‘sinqchi, raqqos va chaqqon akrobat Raj Kapur o‘zining kutilmagan tryuklari, komik qobiliyati, fantaziysi, kulishlari jiddiy va baland ovozda gapirishlari dilan barchaning yodida qolgan. Shuningdek, uning yana bir o‘ziga xos tomoni filmning go‘zal qo‘sinqlar bilan boyitilgani edi. Buning ustiga rejissyor ustamonlik bilan ulardan foydalangan. YA’ni qo‘sinq asnosida aktyorlar kechmishi, voqealar rivoji va qahramon ruhiyatini ham ochib berishga muvaffaq bo‘lgan. Mana shu edi filmning asosiy yutug‘i.

Shundan so‘ng Raj ko‘plab filmlarni suratga oldi va misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishdi. Uning elga taqdim etgan ijod namunalari orasida o‘zbek xalqiga yaxshi tanish bo‘lgan «Janob 420» (1956 yil), «Mening ismim masxaraboz» (1970 yil), «Bobbi» (1973 yil), «Muhabbat dardi» (1982 yil) kabi ko‘plab filmlar ham bor edi.

Raj Kapur haqida juda uzoq gapirish va g‘oyat ko‘p yozish mumkin. Ammo mazkur ishning maqsadi bevosita unga bog‘liq holda o‘zga mavzuda fikr yuritish. Shu bois ham bu ulug‘ rejissyor ijodi borasidagi ma’lumotlarga nuqta qo‘yib, u yaratgan rejissyorlik maktabining o‘ziga xos jihatlarini tahlil etsak.

Odatda hind kinosi degan iborani eshitsak, qulog‘imiz ostida hind qizlarining qadam tovushi, oyoqlariga qadalgan qo‘ng‘iroqchalar ovozi, milliy musiqa sadolari jaranglab, gullar aro qo‘sishq aytib yurgan yigit-qiz ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Chunki aynan shu xususiyati bilan mazkur xalq filmlari dunyoni zabit etgan. Albatta, ularning zafar va g‘alabalarini ko‘rgan boshqa millat, jumladan, o‘zbek rejissyorlari ham o‘z filmlarida xuddi shu usuldan foydalanishga harakat qilishgan. Masalan, «Tog‘lik kuyov», «Shabbona» va. h.k. Biroq, ularning hech biri hind kinosi bo‘la olmadi. Ularga o‘xshay olmadi. Aynan shu yerda yuqoridagi mulohazalarimizni asoslab ketish imkonini tug‘iladi. YA’ni kimlarningdir ko‘zga oddiy ko‘ringan usulni qo‘llash, sodda ko‘ringan filmni yaratish uchun kuchli bilim, mahorat va topqirlik kerak. Ana shundagina har qanday yolg‘on syujet ham, to‘qima voqealar ham tomoshabinni ishontira oladi.

Bugungi kunda ham qizg‘in faoliyat olib borayotgan Bolliwood ijodkorlari aynan Raj Kapur asos solgan andoza asosida ishlamoqdalar. Yildan-yilga uni boyitib, shakllantirib, rivojlantirib bormoqdalar. Shu bois ham texnika hamda ulkan aktyorlik matabiga ega bo‘lgan boshqa kinosanoat asarlari orasida ham ular o‘z mavqeい va tomoshabinini doimgiday, kerak bo‘lsa, undan ham ko‘proq saqlab kelmoqdalar. Chunki bu matabda rejissyorlik sohasi bo‘yicha Raj Kapur singari puxta bilim beriladi. U kabi san’atning turli jahbalari va yo‘nalishlarini bevosita amaliyoti bilan o‘rgatiladi. Faqatgina rejissura emas, aktyorlik, qo‘sishchilik, raqqoslik, bezakchi, rassom, operator va chiroqchilik kabi sohalar ham ularning onggiga singdiriladi. Shu bilimlar tufayli rejissyorlar badiiy va ijro saviyasi yuqori bo‘lgan ijod mahsullarini elga taqdim etadilar.

Ma'lum bo'lishicha, Hindistonning ko'zga ko'ringan va dunyoga dong'i ketgan aktyorlarining ko'pchiligi san'at sohasida umuman taxsil olmaganlar. Ularni bu sohaga kuchli qiziqish va intilish olib kelgan. Ammo shunga qaramay ular o'zlarining bemisl qobiliyatları va ijro mahoratlari bilan dunyoni larzaga solganlar. Aktyorlik sohasida yillab bilim olgan ayrim kasbdoshlaridan ham ilgarilab aql bovar qilmas muvaffaqiyatlarga erishgan. Masalan: Dxarmendra Deol, Rajesh Kxanna, Amitabx Bachchan, Mitxun Chakroborti, Nargis, Vijayantimela, Babita, Dimpl Kapadia kabi ko'plab ijodkorlar ana shunday kinoga qiziqish va ulkan xohishlari bilan kirib kelganlar. Yuragida bir olam orzusidan, go'zal qad-qomat va latofatidan boshqa hech nimasi bo'lмаган bu yoshlarning barchasi rejissyorlarning bilimi, izlanishlari bois buyuk aktyor bo'lib yetishdilar. Chunki ularning yuraklari tub-tubida yashirinib yotgan qobiliyatlarini aynan rejissyorlar ustalik bilan yuzaga chiqargan. Demak, hind kinolarining muvaffaqiyatini aynan rejissyorlarning mehnatlari ta'minlashi ayni haqiqat. To'g'ri, tomoshabin bilan yuzma-yuz bo'ladigan, ularni ekran qarshisiga mixlaydigan yoki u yerdan tezroq ketib qolishlariga sabab bo'lувчи albatta aktyorlar hisoblanadi. Ammo ularning yuksak ijrolari, tomoshabin bilan yuzlashgandagi barcha kechinmalariga aynan rejissyorlar yetakchilik qilishadi. Rejissyor aktyordan ham, tasvirchidan ham, rassom, boringki, barcha-barcha ijodkorlar oldiga vazifa qo'yishni va talab qilishni yaxshi biladi. Shuning uchun ham ular yaratgan kinolar g'oyat tabiiy va hayotiy aks etadi. Shuning uchun ham ekranda ro'y berayotgan yolg'on voqealarning yolg'on ekanligini bilib turib tomoshabin ishonadi. Ko'ziga yosh oladi yoki quvonadi. Xalqimiz hindlarning urf-odati, rasm-rusumlari, bayramlari, hatto, marosimlari va diniy qo'shiqlarini ham yoddan bilishadi. Ammo o'zimizning milliy qadriyatlarimiz borasidagi savollarga to'la javob bera olishmaydi. Yoki o'z dinimizga oid biror surani oxiriga qadar yoddan aytib berolmaydiganlar bor. Nega shunday? Chunki hindlar har bir filmida, o'sha "yolg'on-yashiq" voqealar qatorida o'z milliy urf-odatlarini, turmush tarzini va diniy udumlarini ham batafsil ko'rsatib beradi. Shuning uchun ham ularning tarixi va millati borasida butun dunyo xalqi ko'p

ma'lumotlarga ega. Yuqorida ularning bu qadar dunyoga dong taratishlariga Raj Kapur asos solgan melodrama janrini asos sifatida keltirib o'tdik. Ammo faqat shu unsurgina ularni dunyo kino bozoridagi yuqori reytingini ushlab turgani yo'q. Bunga ularning o'ziga xos yana bir yondashuvchi sabab bo'lmoqda. Buni esa har bir filmda ochiqdan-ochiq ko'rish mumkin. Biroq negadir bizning rejissyorlar ulardan boy va kambag'al o'rtasidagi muhabbat mojarosi yoki qo'shiq aytib, raqsga tushishlarini o'zlashtiradilaru ammo eng asosiy jihatga e'tibor ham berishmaydi. Keling, mulohazalarimizni bir necha misollar orqali asoslab ketamiz.

Hind kinolarining yutuqlaridan biri, boshqa millatlarga ham o'z xalqini yaxshi tanitgan omil bu filmlarda har doim milliylikning qaysidir ko'rishini aks ettirishdir. Agar e'tibor bergen bo'lsangiz, deyarli barcha hind filmlarida qahramonlar o'z millatidan, o'z vatanidan, o'z urf-odatlaridan fahrlanadilar. Unga har doim amal qiladilar. Oddiy qahramonning ikki og'iz gapi yoki oddiy turmush tarzi orqali rejissyor millatining eng asosiy sifatlarini ochib beradi. Bundan tashqari, ular tomoshabin ko'z o'ngida vatanparvar, hayotidan minnatdor, o'yin-kulgidan boshi chiqmaydigan quvnoq xalq sifatida gavdalanadi. Ular aksari filmlarini yurtining chiroyli go'shalarining tasviri bilan boshlashadi. Vaholanki, ularda bunday manzillar barmoq bilan sanarli. Ammo bizda-chi? Bizda esa asosan vayronalar, qishloqlar, nuragan devor va buzilgan mashinalar tasviri bilan film syujeti boshlanadi. Nima, milliyligimizni ko'rsatish uchun nuragan devordan boshqa narsamiz yo'qmi? Filmning boshlanishidagi tasviri muhim ahamiyatga ega ekanligi isbot talab qilmas haqiqat-ku. Unda nega ana shunday oddiy qoidalarga rioya qilmaymiz?

Hind filmlari va ularning rejissurasidagi o'ziga xoslik haqida fikr yuritar ekanmiz, mulohazalarimizni "Uch savdoysi" filmi misolida asoslashga harakat qilamiz.

Rejissyor Raj Kumar Xirani tomonidan tasvirga olingan filmda bosh rollarni Bolliwoodning atoqli artistlari Amir Xon va Karina Kapur, ikkinchi darajali rollarni esa qator aktyorlar ijro etishgan. Film nomiga nomunosib tarzda

savdoyi, ya’ni tentaklar haqida emas. Aksincha, sog‘lom, o‘qimishli tentak yigitlaring buyuk do‘stligi haqida bo‘lib, voqealar rivoji orqali insoniylikning jirkanch illatlari tanqid ostiga olinadi. Va tomoshabinlarga odamiyikdan saboq beradi.

Unda namoyish etilayotgan do‘stlik, beg‘araz munosabatlar va musaffo sevgi barchada havas uyg‘otadi. O‘z do‘stiga xiyonat qilishni xohlamagan yigitlardan biri bunday pastkashlikdan ko‘ra o‘limni afzal bilsa, yana boshqasi do‘sti va uning kelajagi uchun qat’iy harakat qiladi. Va uning bir umr armon bo‘lib qolayozgan orzularini ro‘yobga chiqaradi. Filmning ahamiyatli tomoni shundaki, yigitlarning qalin do‘st bo‘lishlari va bir-birlariga yordam berishlari uchun hech qanday qurbanlik ham, molu-davlat ham talab qilinmaydi. Aksincha, ularning o‘zaro muhabbatlari va ezgu niyatlari bois oralaridagi rishta tobora uzilmas bo‘lib boradi. Bu orqali rejissyor ezgulik qilish hammaning ham qo‘lidan kelishi, buning uchun faqatgina kuchli xohishning o‘zi ham kifoya qilishini isbotlab beradi. Bundan tashqari, tomoshabinni ezgulikka, sahovatga chorlaydi.

Yoki 1997 yilda ekranlar yuzini ko‘rgan rejissyor Karan Joxarning “Salom shodlik, salom g‘am” filmini olaylik. Unda taniqli aktrisa Kajol talqinidagi Anjali obrazida ham hind millatining ko‘p jihatlari yorqin bo‘yoqlar bilan ochib berilgan. Ayniqsa, bu holat uning oilasi bilan Angliyada hayot kechirayotgan vaqtarda mohirona ko‘rsatib beriladi. YA’ni har kuni tong saharlab ibodat qilishni va diniy ibodat qo‘shiqlarini kuylashni kanda qilmaydi. Vaholangki, uning bu yurtga kelganiga 10 yildan oshgan bo‘ladi. Ammo u o‘zining hind ekanligini unutmeydi va bundan faxrlanadi. Shuning uchun ham o‘g‘lining inglizlarga emas, hindlarga o‘xshashini chin dildan xohlaydi. Bu yo‘lda esa uni hech nima to‘xtatib qololmaydi. Shuning uchun farzndiga milliy urf-odatlar va qo‘shiqlarni o‘rgatadi. Norozilik bildirgan eriga esa “Men hindman va buni hech qachon esimdan chiqarmayman. Shunday ekan bolam ham o‘z millati va milliy qadriyatarini to‘la bilgan holda ulg‘ayishi shart” degan qat’iy javobni beradi. Yuqoridagi misollar orqali esa shu narsa oydinlashadiki, Bolliwoodda

shunchaki filmlar olinmaydi. Ularning zamirida mablag‘ orttirish va albatta, o‘z millati hamda yurtini dunyoga namuna qilib ko‘rsatish maqsadi yotadi.

### **Nazorat savollari**

1. Amerika Qo‘shma Shtatlarida kino va teatr mutaxassislari qanday o‘qitiladi?
2. Tanlov ta’limi va kredit sistemasi nima?
3. Hindiston kinoindustriyasi mutaxassislari qanday tayyorlanadi?
4. Art xaus, meynstrim, mualliflik kinosi tushunchalari haqida nimalar bilasiz?
5. Kino san’ati va kino sanoati: umumiylilik va o‘ziga xosliklari borasida mulohazalaringiz?

### **3-mavzu. Yevropa mamlakatlarida san'at ta'limi tajribalari. Sharq mamlakatlarida madaniyat va san'at ta'limi.**

#### **Reja:**

- 3.1. Xorij davlatlarida san'at ta'limining yetakchi xususiyatlari
- 3.2. Yaponiya ta'lim modeli.
- 3.3. San'at ta'lida iqtidor masalasi.
- 3.4. Differensial va individual ta'lim.
- 3.5. Integratsiya - xorijiy ta'lim asosi sifatida.

**Tayanch iboralar:** ta'lim modeli, integratsiya, differensiallashgan ta'lim, individual ta'lim, iqtidor, qobiliyat, tabaqalangan ta'lim.

#### **3.1.Xorij davlatlarida san'at ta'limining yetakchi xususiyatlari**

Har bir mamlakatning san'at yo'nalishi ta'limi g'oyaviy-siyosiy jihatdan qat'iy nazar inson ongidagi estetik didlarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Har bir xalqning musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati tili va madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasining strukturali tizimi va ilmiy - metodik yutuqlari boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobjiy ta'sir qiladi. Xorijiy mamlakatlarda yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmaydi. Davlat maktablari bilan birga shaxsiy kollejlar va oliy ta'lim dargohlari mavjud bo'lib, turlicha darajada estetik tarbiyani amalga oshirishda o'quvchiga keng ijodiy erkinlik berilgan. O'qituvchi o'zining sharoiti imkoniyatlari va o'quvchilarning bilim darajasiga qarab dasturga o'zlashtirishlar kiritishi mumkin. U tarbiya jarayonida o'quvchilarda san'at orqali hayotni va unga shaxsiy munosabat bildirish ijodiy munosabatda bo'lish malakalarini rivojlantiradi. Musika fanidan maqsad asosan o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni ro'yobga chiqarishdan iborat. Jumladan AQSH da yagona davlat dasturi yo'q. Musiqa ta'limi "estetika" sifatida qo'yiladi. Unda musiqa tasviriy san'at va mehnat bilan mazmunan bog'langan. Davlat maktablari bilan birga diniy hamda shaxsiy dunyoviy maktablar ham mavjud. Shuning uchun har bir

maktabda, davlat maktablarida shaxsiy va diniy maktablarda o‘quv harakatlari ham bir xil emas. O‘rta hisobda I-VII sinflarga haftasiga 4-2 soatdan dars o‘tiladi. Darsdan tashqari har bir o‘quvchi musiqa to‘garaklari (xor, orkestr, raks, vio) ga a’zo bo‘lishi mumkin. Shuningdek bir maktabda simfonik orkestr mavjud.

Yaponiyada ham yagona o‘quv reja va dasturga amal kilinmaydi. Yaponiyada musiqa tarbiyasining o‘ziga xos sistemasi vujudga kelgan. Ularda bolalar bog‘chasidan oliv ta’limgacha estetik tarbiya amalga oshiriladi. Estetik tarbiya integratsiya qilingan fan bo‘lib, unga musiqa, tasviriy san’at va mehnat uzbek birlashgan. U bir necha bosqichda amalga oshiriladi6

- a). 1-5 yoshgacha bolalar bog‘chasida;
- b). 6-14 yoshgacha to‘liqsiz o‘rta maktabda;
- v). 15-18 yoshli bolalar o‘rta maktabida;
- g). 18-23 yosh - oliv ta’lim maktabida.

Bolalar boqchasida «Suzduki» tizimi mashhurdir. Bu tizimga ko‘ra ona tilini o‘qitilishi musika tinglab idrok etish orqali amalga oshiriladi. Bolalar cholg‘u asboblarida kuy chalishgina hamda rol o‘ynaydilar. Mashg‘ulotlar jarayonida bolalarning onasi ham ishtirok etib, uning mazmuni va maqsadidan ogoh bo‘ladi, so‘ngra shug‘ullanishni (ya’ni kuylashni) oilada ham davom ettiradi. Sudzuki tadbirlarida onalarning musiqa ma’lumotiga ega bo‘lishlari shart emas. Oilada gramzapis, televideniye, konsertlarda tinglangan asarlarni muhokama etadilar. Bunda bog‘cha va oilaning hamkorligi ham rol o‘ynaydi. Natijada 5-6yoshli bolalar Betxoven sonatalarini chalishga erishadilar. Yuqori sinflarga ko‘chgan sari estetik tarbiya ham har bir predmet singari murakkablashib boradi. Sinflarda rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san’ati, musiqa san’ati tanqidchilari yetishadi. O‘qituvchi kadrlar tayyorlash ishi ham Yaponiyada yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ular asosan mamlakat oliv pedagogika va san’at institutlarida ta’lim oladilar, shunga qaramay rivojlangan Yevropa mamlakatlariga borib, o‘z malakalarini oshiradilar.

### **3.2. Yaponiya ta’lim modeli.**

Boshqa qator rivojlangan mamlakatlar qatori Yaponiyada ommaviy o‘rta maktablarning yaratilishi ta’lim-tarbiya differensiyasi muammosini yanada

keskinlashtirdi. Bunday holat umumiyligi ta’lim diversifikatsiyasining sifat darajasi boshqacha tizim zaruratini keltirib chiqardi. O‘quvchilarning iqtidori, qiziqishi, o‘zlashtirishiga ko‘ra differential tayyorgarlikni kuchaytirish va murakkablashtirish - zamonaviy maktabning global yo‘nalishiga aylandi.

Differensianing asosiy shakllari - o‘quv muassasalarini turli tiplarga bo‘lish, bir maktab ichida potok va profillarga, sinfda guruhlarga ajratish nazarda tutiladi. Differential ta’lim muammosi bir xil hal bo‘lmaydi va qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiy tomondan differensiya ijtimoiy tanlov usuliga aylanadi. Pulli ta’lim va imtihonlar tizimi bunda tanlov vositasi bo‘lib hisoblanadi. Odadta tabaqalanish (differensiya) boshlang‘ich maktabni bitirgandan keyin boshlanadi. U turli tipdagi ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi. Masalan: Angliyada grammatik va zamonaviy maktablarda, Germaniyada real bilim yurti, gimnaziya va asosiy maktablarda, Fransiyada texnologik, kasbiy va umumta’lim litseylarda, Rossiyada oddiy o‘rta maktab, litsey, kollej, gimnaziyada va b. Bu o‘quv muassasalarida differensianing asosiy o‘ziga xos belgisi dasturlardir. Bir o‘quv muassasasi doirasida differensiya keng yoyilgan.

Masalan, AQSH va Yaponiya katta o‘rta maktablarida 2 tipdagि umumta’lim va maxsus dasturlar mavjud. Ular turli qirralarda o‘quvchilarning turli guruhlarini o‘rganishadi. Germaniyada gimnaziya ta’limning 6 profilini taklif etadi, asosiy maktab esa differensiyanı KKAM tizimi asosida amalga oshiradi. Unga ko‘ra ta’lim dasturning quyidagi variantlariga ko‘ra tashkil qilinadi: kasbiy kurs(K), kengaytirilgan kurs (K), asosiy kurs (A), moslashtirilgan kurs (M).

To‘liqsiz o‘rta maktab differensiya vositasi hisoblanadi. 1930 yil AQShda, 1950 yil Yaponiyada, 1970-1980 yillar G‘arbiy Yevropada, 1990 yil Rossiyada differential ta’lim amalga oshiriladigan o‘quv muassasalari paydo bo‘la boshladi. Bu yerda gap AQSH va Yaponiyadagi kichik o‘rta maktab, Buyuk Britaniyadagi birlashgan maktab, Germaniyadagi yagona kollej, Rossiyadagi 6 yillik o‘rta ta’lim maktabi haqida ketyapti. Bu kabi ta’lim muassasalarida 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar o‘qitiladi. Bu o‘quv muassasalarda tabaqalanishning pedagogik asoratlari ijobjiy. Tabiiy maqsadga yo‘naltirilgan xarakterga ega, turli

guruh o‘quvchilari imkoniyatlari hisobga olinadi. Umumiy dastur o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishga mo‘ljallangan. Masalan, Fransiyadagi ilk yagona kollejlarda yaxshi o‘zlashtiruvchilar foizi shu yoshdagi parallel ta’lim muassasalarida yaxshi o‘zlashtiruvchilar sonidan yuqori chiqdi. AQSH va Yaponiya kichik o‘rta maktablarida to‘liqsiz o‘rta ta’lim beriladi. Mazkur dastur qator afzalliliklarga ega. Tanlov fanlar ta’limni davom ettirish yoki mehnat faoliyatini boshlashni nazarda tutadi.

1950 yil oxirida DJ.Konant boshchiligidagi pedagoglar guruhi umumqamrab oluvchi mакtab modelini taklif etdi. Bu model bo‘yicha umumta’lim o‘quv muassasasida ijtimoiy daraja, qobiliyat, qiziqishidan qat’iy nazar barcha bolalar o‘qishadi, lekin turli-tuman ta’lim dasturlari amalga oshiriladi. Konant tavsiyalari AQShdagи kichik o‘rta maktablarda differential ta’limni joriy qilishda foydalanildi. Buyuk Britaniyada birlashgan maktablar kichik grammatik sinflar va zamonaviy maktablarni o‘z ichiga oladi. Ilk 3 yillikda o‘quvchilar zamonaviy mакtab dasturi bo‘yicha shug‘ullanadilar, keyin yoki shu dasturni davom ettiradi, yoki grammatik mакtab dasturi bo‘yicha o‘qishadi. Birlashgan maktablarda yoshiga ko‘ra 90% o‘smirlar shug‘ullanadilar.

Germaniyada umumiy maktablarda yoshiga ko‘ra 5% o‘quvchilar tahsil olishadi. Umumiy maktabning kooperativ va integral tiplari yuzaga keldi.

Kooperativ maktablar asosiy, real mакtab va gimnaziyalarni birlashtirdi. 9-sinfdan keyin o‘quvchilar asosiy maktabdagi kabi diplom oladilar, 10-sinfdan keyin esa diplom real mакtab va gimnaziyaning o‘rta bosqichiga teng keladi. Kooperativ maktablarda mashg‘ulotlar majburiy va elektiv dastur birgaligida amalga oshiriladi.

Fransiyada yagona kollejlarda guruh bo‘yicha ta’lim doimiy tashkil etiladi. Turli tipdagi guruhlar tuziladi: gomogen guruhlar – tayyorgarlik darajasi bir xil, yarim gomogen guruhlar – tayyorgarlik darajasi yaqin, geterogen – tayyorgarlik darajasi har xil. Guruhlarga o‘qituvchilar, psixologlar, yo‘nalishlari bo‘yicha maslahatchilar tavsiyasiga ko‘ra bo‘linadi.

Guruqlar maktab dasturi variantlarini o‘zlashtiradilar. Ikkita bitiruvchi sinfda kuchli va kuchsiz bosqichli guruqlar yuzaga keladi. Bu ikki xil guruhni bitirgan kollej o‘quvchilariga ta’limning keyingi tiplari tavsiya etiladi.

Yaponiya maktablarida guruhli ta’lim yaxshi mavqega ega, uni musobaqa tarzida tashkil etishadi. Sinfdagagi guruhchalar kim ko‘p ingliz tilidagi so‘zlar, iyeroglif va she’r yod olish bo‘yicha bellashadilar. Bahohun qo‘yiladi. Yapon pedagoglari guruhli ta’limga har xil nuqtai nazar bilan qarashadi. Guruhli ta’lim pedagogik jihatdan to‘g‘ri, lekin guruhlarda shug‘ullanuvchi bolalar va o‘smirlar dunyoqarashini toraytirish xavfi bor, deb hisoblashadi. Masalan, guruhni kuchlilar va zaiflar guruhiga bo‘lganda 2ta holat yuzaga keladi: yoki kuchlilarga, yoki kuchsizlarga e’tibor qaratiladi, bu har ikkala guruhga ham zarar.

Chilida ta’lim intizomi (Florens Torch, Alexandro Mizala). Chili ta’lim tizimining o‘ziga xos tashkiliy tuzilmasi mavjud. Chili ta’lim tizimida 1981 yilda tashkiliy o‘zgarishlar amalga oshirildi, ya’ni hukumatning markazlashgan nazorati ostida bo‘lgan ta’lim tizimi mahalliy hokimiyat tomonidan nazorat qilinadigan universal vaucher tizimiga o‘tkazildi. Hozirgi kunda, ta’lim muassasalari ijtimoiy-iqtisodiy qatlamlarga bo‘lingan. Bular kambag‘allar o‘qiydigan davlat maktablari, o‘rta qatlam tahsil oladigan vaucherli davlat maktablari va boyalar o‘qiydigan xususiy ta’lim dargohlaridan iborat. Chilida talabalar orasidagi zo‘ravonlik indeksining yuqori darajada bo‘lishi, Chili maktablarida keng tarqalgan bezorilikning natiasi bo‘lishi mumkin. Chili maktablari keskin tabaqalashuvi bilan farqlansada, boyalar tahsil oladigan maktablardagi tartib quyiroq maktablarga nisbatan unchalik ham farq qilmaydi. O‘z navbatida, qishloqdagi tartibsizlik ko‘rsatkichi shaharga nisbatan ancha kamdir.

Isroilda ta’lim intizomi va yutuqlar (Yossi Shavit, Karmel Blank). Isroil ta’limidagi intizomiy iqlim va talabalarning yutuqlari orasidagi kuchli va muhim bog‘liqlik mavjud. Test natijalari rahbarlarning talabalarning mashg‘ulligi yuzasidan qilgan hisobotlari va o‘qituvchilarning sinf intizomi hisobotinig salbiy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Talabalar orasidagi va talabalar tomonidan o‘qituvchilarga nisbatan amalga oshirilgan zo‘ravonlik ommaviy axborot vositalari tomonidan so‘nggi yillarda

ko‘p yoritilib kelinmoqda. Isroil talabalari itoatkorlik va ehtirom borasida aralash ma’lumotlarni qabul qiladilar. Maktablarda, Isroillik talabalar ayni hisobotda ham intizomi uchun, ham fanlari uchun baholanadi. O‘z navbatida intizom bahosi qoniqarli ko‘rsatkichdan past bo‘lsa, talabalar safidan chiqarilishi mumkin. Boshqa tarafdan, isroilliklar mustaqil va jasurlikni qadrlaydigan sabrli yoshlar madaniyatiga juda katta ahamiyat beradilar.

Italiya ta’lim dargohlarida immigrantlarning mavjudligi, intizomi va faoliyati (Paolo Barbiyeri, Stefani Sherer). Italiya talabalari orasidagi zo‘ravonlik akademik faoliyatga katta to‘sinqinlik qiladi. Yuqori darajadagi zo‘ravonlikning salbiy ta’siri immigrant talabalar faoliyatidagi o‘tkir masaladir. Ular mahalliy italiyaliklarga nisbatan ko‘proq zo‘ravonlikka duch keladi va akademik ko‘rsatkichlari ham nisbatan pastroqdir. Italiyadagi immigrantlar dunyoning hamma yeralaridan kelganlar. Ularning kattagina qismi Marokash, Xitoy, Ruminiya, Ukraina, Moldova, Hindiston va Fillipindan kelgan. Shuningdek, shimoliy va janubiy Italiya orasidagi farq ham dramatik ko‘rinishga egadir. Janub shimolga nisbatan kamroq moliyaviy resurslarga ega bo‘lganligi bois shimaldan ancha ortda va bu qoloqlikni ta’lim sohasida ham ko‘rish mumkin. Janubda, talabalar, o‘qituvchilar va rahbarlar, shimaldagilarga nisbatan taqqoslanganda, yuqori darajadagi tartibsizliklarni qayd qiladilar.

**Кокоро –основа образования в начальной и средней школах, способствующая формированию характера человека:**

A) уважение к человеку и животным;  
 Б) симпатия и великодушие;  
 В) поиск истины;  
 Г) способность чувствовать прекрасное и возвышенное;  
 Д) обладание самоконтролем;  
 Е) внесение вклада в развитие общества.



Yaponiyada ta’lim intizomi va akademik yutuqlar (Xiroshi Ishida, Satoshi Miva). Yaponiya ta’lim dargohlarida tartibsizlik va jinoyatlarning sodir bo‘lish darjasasi juda past ekanligi ko‘rsatilgan. Yaponiya maktablaridagi yuqori darajadagi tarbiya ota-onalar, ta’lim dargohlari xodimlarining o‘ta talabchanligi, hamda o‘rtal-

ta’lim va undan keyngi ta’lim dargohlaridagi iyerarxal tartiblanishi sababdir. Yapon ta’lim dargohlarida talabalar orasidagi xulquzarlik darajasini yoritish oson emas. Yaponiyada, ta’lim intizomi muhiti talabaning yutuqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazmaydi. Nima bo‘lganda ham, zo‘ravonlikni boshidan kechirgan talabalar test natijalari zo‘ravonlikka hech ham uchramaganlarga nisbatan pastroqdir.

Gollandiyada ta’lim intizomi muhiti, tarbiyaviy muammolar, va akademik yutuqlar (German G. Van de Verfborst, Makbteld Bergstra, Rene Veyenstra). Gollandiyada ta’lim intizomiy muhiti talaba faoliyatiga faqat ozgina ta’sir o‘tkazishi, talabalar guruhining tarkibiga bo‘lgan ta’siri mustaqilligini ko‘rsatadi, hamda gollandlarning ta’lim tizimidagi unikal tuzilma talaba faoliyatiga chegaralangan, ya’ni kam ta’sir o‘tkazishini ko‘rsatmoqda. Gollandiyada ta’lim tizimi yuqori darajada standartlashtirilgan; shunga qaramay maktab darajasidagi avtonomiyaga ko‘proq joy mavjud. Ta’lim dargohlarida dramatik ko‘rinishda farqlilik mavjuddir. Ham akademik, ham kasb-hunarga yo‘naltirilgan ta’lim muassasalariga nisbatan faqat akademik yo‘nalishni taklif qiladigan ta’lim dargohlarida yuqori darajadagi ta’lim xavfsizligi ta’minlangan.

Umuman olganda, Yaponiya ta’li modeli o‘ta yuqori darajadagi qurilmasi bilan boshqa rivojlangan mamlakatlar tizimidan ajralib turadi.

### **3. 3. San’at ta’limida iqtidor masalasi.**

Iqtidorli bolalar bu - umumiy va maxsus qobiliyatlarni o‘zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

1. Konseptual aql – xodisalarning mantiqiy, matematik, lingvistik masalalarini yaxshi xal qilish iqtidori;
2. Estetik aql – xodisalarning shaklini bilishga intilish, lekin xar doim xam ularning sabablari bilan qiziqmasligi;
3. Ijtimoiy aql (sotsial) – asosiy diqqat shaxslararo munosabatlarda jamlangan bo‘lib, inson taqdiri, maqsadlar va qadriyatlar bilan bog‘liq qarorlarni mustaqil qabul qilish salohiyati.

Muammoli ta’lim xam ana shu aqlning qay birini rivojlantirishga qaratilganligi bilan bir-biridan farq qilishi mumkin.

Hozirda rivojlangan mamlakatlarda kichik yoshlikdan bolaning IQ – intellekt koeffitsiyenti –(bilim qabul qilish, yangi bilim yaratish va uni samarali ishlatib boy bo‘lish qobiliyat)ga alohida diqqat qaratilmoqda.

Innovatsion rivojlanish uzluksiz ta’limga yangi talablar qo‘yadi. **Maktabgacha ta’limdan** boshlab bolani qobiliyatini sohasini aniqlab, uni har yil rivojlantirish (intellekt koeffitsiyenti - IQ) va oddiy maishiy ingliz tilini o‘rgatish. **Umumiy o‘rta ta’limda va litseylarda (11 yil)** yangi bilimlar berish bilan birga **qobiliyatni (IQ) rivojlanish omillarini** har yil har bir o‘quvchi uchun tahlil qilish, bilimlarni va qobiliyatni ishlatib boy bo‘lishga qiziqtirish. Qobiliyatiga va qiziqishiga mos oliv ta’lim muassasasi va kasb-hunar kollejida kasb tanlashiga tavfsiyalar berish. 5-sinfdan boshlab mustaqil “ESSAY” yozishni o‘rgatish (har yil so‘z o‘lchovini oshirish va mukamallashtirish). Yozma va og‘zaki ingliz tilini rivojlantirish. **Kollejlarda (6 oydan 2 yilgacha)** “ustoz-shogird” tizimini joriy etib, ishlab chiqarishni mas’uliyatini oshirib, O‘zbekistonda bor innovatsiyalarni ishlatishga o‘rgatish va ishga joylash.

**Oliy ta’lim (OTM) bakalavriyatida abituriyentlar** uchun test sinovlarini adolatlashtirish: barcha OTMga (ijodiy OTMdan tashqari) qabul ballari yagona bo‘lishi va bir yildan so‘ng mutaxassisliklarga bo‘linishini ta’minlash. Ijodiy OTMlarda estetik iqtidorni yuqori o‘ringa qo‘yish. San’at dargohlari bilan mustahkam aloqalar o‘rnatib, integratsiyaga alohida diqqat qaratish (ijodiy amaliyotlar, yirik san’atkorlarning maxsus kurslarini tashkil etish). 2-bosqichdan boshlab xorijiy ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish. Barcha mutaxassisliklarda ingliz tilini chuqur o‘rgatishga ahamiyat berish.

**Magistraturada** o‘qishni to‘liq ingliz tiliga o‘tkazish (Koreya, Yaponiya, Germaniya tajribasi). Ustoz-shogird xorijiy innovatsiyalarni modernizatsiyalashga harakat qilib, xomiylar yordamida joriy etishga xarakat qilish.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim:

**Doktoranturada (PhD, DrS)** yangi ilmiy g‘oyalar va innovatsiyalarni ixtiro qilish, samarali joriy etish va eksport qilish.

Germaniyada 10-12 yoshdan boshlab iqtidorli bolalarni (IQsi 130 baldan baland) ajratib olib, Berlin Anna-LinCh-Schute mакtabida maxsus metodikalar orqali qobiliyatini rivojlantiriladi. Bularning nomi “Yevropa iqtisodiyotini 80 umidlari”. Bu tariqa iqtidorli bolalarni “bizning buyuk kelajagimiz” deb Koreya, Singapur, AQSH, Avstraliya, XXR va boshqa rivojlangan davlatlarda ham tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

### **3.4. Differensial va individual ta’lim.**

Pedagogik jarayonda talabalarga individual va differensial yondashuv shaxs rivojlanishida muhim omil hisoblanadi, chunki aynan shunday yondashuv yoshlardagi iqtidor va qobiliyatni ko‘ra bilish, shaxs rivojlanishiga sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Bosqichlik differensiya texnologiyasidan foydalanishning asosiy maqsadi har bir talabani o‘zining imkoniyatlari va qobiliyatları darajasida o‘qitish bo‘lib, natijada har bir ta’lim oluvchi o‘z iqtidoriga ko‘ra bilim olish va shaxsiy salohiyatini amalga oshirish (qo‘llay olish) imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mazkur texnologiya ta’lim jarayonini yanada samaraliroq bo‘lishiga xizmat qiladi.

Individual va differensial o‘qish bir xil emas. Differensial ta’lim –o‘quv jarayonini o‘quvchilar guruhining yetakchi xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish bo‘lsa, individual ta’lim har bir o‘quvchining qobiliyati, iqtidoriga qarab beriladi. Ishni samarali tashkil qilish uchun dastur, darslik, didaktik materiallarning yangi variantlari yaratiladi.

Differensial, ya’ni tabaqalashtirilgan ta’lim so‘zi lotin tilidan “different”, butunni qism, shakl, bosqichlarga bo‘lish ma’nosini anglatadi.

Keyingi yillar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim oluvchi uchun eng qulay sharoitlarni ta’minlaydigan o‘quv jarayoni bu differensial ta’limdir.

Differensial ta’limning maqsadi: talabalarning individual xususiyatlarini, ya’ni iqtidori va qobiliyatini hisobga olib o‘quv jarayonini tashkil qilish.

Differensial ta’limning vazifalari: talabaning o‘ziga xosligi (individualligini) ko‘rish, o‘z kuchiga ishonishga yordam berish.

Differensiya ta’lim pedagogdan talabalarning individual qobiliyatlarini va o‘qish imkoniyatlarini (diqqat, fikrlash, xotira va boshqalarning rivojlanish darajasi), bilim, ko‘nikma, malakalar darajasini tashkillashtirishni o‘rganishni talab qiladi, bu esa korreksion samaraga erishish maqsadida kelgusi individuallashtirishni amalga oshirish imkonini beradi.

Differensial ta’lim aslida maktabdan boshlanadi. Ma’lumki, bolalar maktab dasturlarini o‘rganishga turli tayyorgarlik bilan kelishadi. Statistikaga murojaat etadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning 65% maktabga bir xil psixik rivojlanish bilan keladi va bu meyor hisoblanadi; 15% - kam yoki ko‘p darajada bu bosqichdan o‘tadi; 20% bolalar, aksincha kam bo‘ladi.

Amaliyot tasdiqlashicha, rivojlanishning barcha bosqichlari bo‘yicha mayoriy ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bolalar faqat kitoblarda bo‘ladi. Odatda har bir bolada u yoki bu og‘ishishlar (oz miqdorda bo‘lsa ham) bo‘lib, kelgusida o‘qishdan orqada qolishga olib kelishi mumkin. O‘quvchilarning maktabdagagi o‘quv jarayoniga tayyorgarlik darjasini bir xil emas va yildan-yilga ko‘rsatkich pasayib ketmoqda. Ba’zilarda tayyorgarlik darjasini keyingi o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga mos keladi, ba’zilarida meyorga arang yetib boradi. Differensial yondashuvni amalga oshira turib, pedagog quyidagi talablarga amal qilishi kerak:

- ta’lim uchun yaxshi muhitni yaratish;
- har bir bola o‘zidagi imkoniyati va qobiliyatiga ko‘ra o‘qishi, undan nima kutilayotgani haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- o‘quv jarayonida motivatsiya bo‘lishi uchun har qanday talaba yoki o‘quvchi bilan yaqindan muloqotda bo‘lishi;
- turli darajadagi ta’lim oluvchilarga ularning imkoniyatlariga mos dasturlarni egallashlari taklif etilishi lozim.

Differensianing muhim yo‘nalishi bu to‘ldiruvchi ta’lim bo‘lib, o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilarga nisbatan qo‘yilgan qo‘srimcha pedagogik harakat hisoblanadi. To‘ldiruvchi ta’lim - o‘quvchilarning qoniqarsiz tayyorgarligi,

o‘zlashtirolmasligiga qarshi javobdir. Ta’lim dasturi rahbarlarining bir ovozdan ta’kidlashicha, doimiy va masshtabli to‘ldiruvchi ta’limga assignovaniya, ya’ni mablag‘ yetarli bo‘lsa, uning samarasi yanada yuqori bo‘ladi. To‘ldiruvchi ta’lim amaliyoti maktab va oila hamkorligini nazarda tutadi, psixologiya, oriyentatsiya, individual yondashuv bo‘yicha mutaxassislarni jalb qiladi. To‘ldiruvchi ta’lim shakllaridan biri bir sinfda takror o‘qiydiganlarga ta’lim berishdir.

AQShda boshlang‘ich maktablarda bir sinfda ikki yil o‘qish deyarli yo‘q. Fransiyada sinfda qolish boshlang‘ich maktabning yuqori sinflarda, kollej va litseylarda mavjud. Boshlang‘ich maktabda qayta o‘qish haqidagi qarorni o‘qituvchilar, o‘rta o‘quv muassasalarida ota-onalar roziligi bilan o‘qituvchilar qabul qiladilar. Agar ota –onalar norozi bo‘lsa, masalani maxsus komissiya hal qiladi.

Yaponiyada sinfda qolish holati unchalik ko‘p uchramaydi. Yaponiyada kim to‘liq umumiy ta’lim olmoqchi bo‘lsa, oddiy maktab bilan chegaralanmaydi. U albatta to‘ldiruvchi ta’lim uchun xususiy repetitor maktabi-dzyukuga boradi. Dzyukuda ko‘pincha iqtidorli talabalar dars beradi. Maktab bitiruvchilari va omadsiz abituriyentlar uchun repetitiorlik muassasalari-yebyekular universitetga tayyorgarlikka yo‘naltirilgan. Nufuzli Tokio yebyekularida har yili 150.000gacha o‘quvchilar tahsil oladilar. O‘qituvchilar tarkibida yetakchi universitet professorlari bor. Dzyuku va yebyeku xizmatlariga murojaat qilishdan maqsad qanday qilib bo‘lsa ham oliy ma’lumotli bo‘lishga intilishdir. Ota –onalar bolalarini to‘ldiruvchi ta’limga berishining sababi oddiy maktabning kamchiliklardan xoli emasligi, dzyukuda o‘quvchilarga personal e’tibor berilishi bolaning mustaqil shug‘ullana olmasligi, o‘zlarining yordam berolmasliklari deb tushuntiradilar.

### **3.5. Integratsiya - xorijiy ta’lim asosi sifatida.**

Iqtidorli bolalar bu - umumiy va maxsus qobiliyatlarni o‘zida mujassam etgan bolalardir. Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

1. Konseptual aql – xodisalarning mantiqiy, matematik, lingvistik masalalarini yaxshi xal qilish iqtidori;

2. Estetik aql – xodisalarning shaklini bilishga intilish, lekin xar doim xam ularning sabablari bilan qiziqmasligi;

3. Ijtimoiy aql (sotsial) – asosiy diqqat shaxslararo munosabatlarda jamlangan bo‘lib, inson taqdiri, maqsadlar va qadriyatlar bilan bog‘liq qarorlarni mustaqil qabul qilish salohiyati.

Muammoli ta’lim xam ana shu aqlning qay birini rivojlantirishga qaratilganligi bilan bir-biridan farq qilishi mumkin.

Hozirda rivojlangan mamlakatlarda kichik yoshlikdan bolaning IQ – intellekt koeffitsiyenti –(bilim qabul qilish, yangi bilim yaratish va uni samarali ishlatib boy bo‘lish qobiliyati)ga alohida diqqat qaratilmoqda.

Innovatsion rivojlanish uzlucksiz ta’limga yangi talablar qo‘yadi. **Maktabgacha ta’limdan** boshlab bolani qobiliyatini sohasini aniqlab, uni har yil rivojlantirish (intellekt koeffitsiyenti - IQ) va oddiy maishiy ingliz tilini o‘rgatish. **Umumiy o‘rta ta’limda va litseylarda (11 yil)** yangi bilimlar berish bilan birga **qobiliyatni (IQ) rivojlanish omillarini** har yil har bir o‘quvchi uchun tahlil qilish, bilimlarni va qobiliyatni ishlatib boy bo‘lishga qiziqtirish. Qobiliyatiga va qiziqishiga mos oliy ta’lim muassasasi va kasb-hunar kollejida kasb tanlashiga tavfsiyalar berish. 5-sinfdan boshlab mustaqil “ESSAY” yozishni o‘rgatish (har yil so‘z o‘lchovini oshirish va mukamallashtirish). Yozma va og‘zaki ingliz tilini rivojlantirish. **Kollejlarda (6 oydan 2 yilgacha)** “ustoz-shogird” tizimini joriy etib, ishlab chiqarishni mas’uliyatini oshirib, O‘zbekistonda bor innovatsiyalarni ishlatishga o‘rgatish va ishga joylash.

**Oliy ta’lim (OTM) bakalavriyatida abituriyentlar** uchun test sinovlarini adolatlashtirish: barcha OTMga (ijodiy OTMdan tashqari) qabul ballari yagona bo‘lishi va bir yildan so‘ng mutaxassisliklarga bo‘linishini ta’minlash. Ijodiy OTMlarda estetik iqtidorni yuqori o‘ringa qo‘yish. San’at dargohlari bilan mustahkam aloqalar o‘rnatib, integratsiyaga alohida diqqat qaratish (ijodiy amaliyotlar, yirik san’atkorlarning maxsus kurslarini tashkil etish). 2-bosqichdan boshlab xorijiy ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni O‘zbekiston sharoitiga

moslashtirish. Barcha mutaxassisliklarda ingliz tilini chuqur o‘rgatishga ahamiyat berish.

**Magistraturada** o‘qishni to‘liq ingliz tiliga o‘tkazish (Koreya, Yaponiya, Germaniya tajribasi). Ustoz-shogird xorijiy innovatsiyalarni modernizatsiyalashga harakat qilib, xomiyalar yordamida joriy etishga xarakat qilish.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim:

**Doktoranturada (PhD, DrS)** yangi ilmiy g‘oyalar va innovatsiyalarni ixtiro qilish, samarali joriy etish va eksport qilish.

Germaniyada 10-12 yoshdan boshlab iqtidorli bolalarni (IQsi 130 baldan baland) ajratib olib, Berlin Anna-LinCh-Schute mакtabida maxsus metodikalar orqali qobiliyatini rivojlantiriladi. Bularning nomi “Yevropa iqtisodiyotini 80 umidlari”. Bu tariqa iqtidorli bolalarni “bizning buyuk kelajagimiz” deb Koreya, Singapur, AQSH, Avstraliya, XXR va boshqa rivojlangan davlatlarda ham tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Pedagogik jarayonda talabalarga individual va differensial yondashuv shaxs rivojlanishida muhim omil hisoblanadi, chunki aynan shunday yondashuv yoshlardagi iqtidor va qobiliyatni ko‘ra bilish, shaxs rivojlanishiga sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Bosqichlik differensiya texnologiyasidan foydalanishning asosiy maqsadi har bir talabani o‘zining imkoniyatlari va qobiliyatları darajasida o‘qitish bo‘lib, natijada har bir ta’lim oluvchi o‘z iqtidoriga ko‘ra bilim olish va shaxsiy salohiyatini amalga oshirish (qo‘llay olish) imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mazkur texnologiya ta’lim jarayonini yanada samaraliroq bo‘lishiga xizmat qiladi.

Individual va differensial o‘qish bir xil emas. Differensial ta’lim –o‘quv jarayonini o‘quvchilar guruhining yetakchi xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish bo‘lsa, individual ta’lim har bir o‘quvchining qobiliyati, iqtidoriga qarab beriladi. Ishni samarali tashkil qilish uchun dastur, darslik, didaktik materiallarning yangi variantlari yaratiladi.

Differensial, ya’ni tabaqlashtirilgan ta’lim so‘zi lotin tilidan “different”, butunni qism, shakl, bosqichlarga bo‘lish ma’nosini anglatadi.

Keyingi yillar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim oluvchi uchun eng qulay sharoitlarni ta’minlaydigan o‘quv jarayoni bu differensial ta’limdir.

Differensial ta’limning maqsadi: talabalarning individual xususiyatlarini, ya’ni iqtidori va qobiliyatini hisobga olib o‘quv jarayonini tashkil qilish.

Differensial ta’limning vazifalari: talabaning o‘ziga xosligi (individualligini) ko‘rish, o‘z kuchiga ishonishga yordam berish.

Differensiya ta’lim pedagogdan talabalarning individual qobiliyatları va o‘qish imkoniyatlarini (diqqat, fikrlash, xotira va boshqalarning rivojlanish darajasi), bilim, ko‘nikma, malakalar darajasini tashkillashtirishni o‘rganishni talab qiladi, bu esa korreksion samaraga erishish maqsadida kelgusi individuallashtirishni amalga oshirish imkonini beradi.

Differensial ta’lim aslida maktabdan boshlanadi. Ma’lumki, bolalar maktab dasturlarini o‘rganishga turli tayyorgarlik bilan kelishadi. Statistikaga murojaat etadigan bo‘lsak, o‘quvchilarining 65% maktabga bir xil psixik rivojlanish bilan keladi va bu meyor hisoblanadi; 15% - kam yoki ko‘p darajada bu bosqichdan o‘tadi; 20% bolalar, aksincha kam bo‘ladi.

Amaliyot tasdiqlashicha, rivojlanishning barcha bosqichlari bo‘yicha mayoriy ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bolalar faqat kitoblarda bo‘ladi. Odatda har bir bolada u yoki bu og‘ishishlar (oz miqdorda bo‘lsa ham) bo‘lib, kelgusida o‘qishdan orqada qolishga olib kelishi mumkin. O‘quvchilarining maktabdagagi o‘quv jarayoniga tayyorgarlik darajasi bir xil emas va yildan-yilga ko‘rsatkich pasayib ketmoqda. Ba’zilarda tayyorgarlik darajasi keyingi o‘qishdagi muvaffaqiyatlariga mos keladi, ba’zilarida meyorga arang yetib boradi. Differensial yondashuvni amalga oshira turib, pedagog quyidagi talablarga amal qilishi kerak:

- ta’lim uchun yaxshi muhitni yaratish;
- har bir bola o‘zidagi imkoniyati va qobiliyatiga ko‘ra o‘qishi, undan nima kutilayotgani haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- o‘quv jarayonida motivatsiya bo‘lishi uchun har qanday talaba yoki o‘quvchi bilan yaqindan muloqotda bo‘lishi;

- turli darajadagi ta’lim oluvchilarga ularning imkoniyatlariga mos dasturlarni egallashlari taklif etilishi lozim.

Differensiyaning muhim yo‘nalishi bu to‘ldiruvchi ta’lim bo‘lib, o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilarga nisbatan qo‘yilgan qo‘sishimcha pedagogik harakat hisoblanadi. To‘ldiruvchi ta’lim - o‘quvchilarining qoniqarsiz tayyorgarligi, o‘zlashtirolmasligiga qarshi javobdir. Ta’lim dasturi rahbarlarining bir ovozdan ta’kidlashicha, doimiy va masshtabli to‘ldiruvchi ta’limga assignovaniya, ya’ni mablag‘ yetarli bo‘lsa, uning samarasi yanada yuqori bo‘ladi. To‘ldiruvchi ta’lim amaliyoti maktab va oila hamkorligini nazarda tutadi, psixologiya, oriyentatsiya, individual yondashuv bo‘yicha mutaxassislarni jalb qiladi. To‘ldiruvchi ta’lim shakllaridan biri bir sinfda takror o‘qiydiganlarga ta’lim berishdir.

AQShda boshlang‘ich maktablarda bir sinfda ikki yil o‘qish deyarli yo‘q. Fransiyada sinfda qolish boshlang‘ich maktabning yuqori sinflarda, kollej va litseylarda mavjud. Boshlang‘ich maktabda qayta o‘qish haqidagi qarorni o‘qituvchilar, o‘rta o‘quv muassasalarida ota-onalar roziligi bilan o‘qituvchilar qabul qiladilar. Agar ota –onalar norozi bo‘lsa, masalani maxsus komissiya hal qiladi.

Yaponiyada sinfda qolish holati unchalik ko‘p uchramaydi. Yaponiyada kim to‘liq umumiy ta’lim olmoqchi bo‘lsa, oddiy maktab bilan chegaralanmaydi. U albatta to‘ldiruvchi ta’lim uchun xususiy repetitor maktabi-dzyukuga boradi. Dzyukuda ko‘pincha iqtidorli talabalar dars beradi. Maktab bitiruvchilari va omadsiz abituriyentlar uchun repetitiorlik muassasalari-yebyekular universitetga tayyorgarlikka yo‘naltirilgan. Nufuzli Tokio yebyekularida har yili 150.000gacha o‘quvchilar tahsil oladilar. O‘qituvchilar tarkibida yetakchi universitet professorlari bor. Dzyuku va yebyeku xizmatlariga murojaat qilishdan maqsad qanday qilib bo‘lsa ham oliy ma’lumotli bo‘lishga intilishdir. Ota –onalar bolalarini to‘ldiruvchi ta’limga berishining sababi oddiy maktabning kamchiliklardan xoli emasligi, dzyukuda o‘quvchilarga personal e’tibor berilishi bolaning mustaqil shug‘ullana olmasligi, o‘zlarining yordam berolmasliklari deb tushuntiradilar.

### **Nazorat savollari**

- 1.** Jahondagi to‘rtta ta’lim modeli haqida nimalar bilasiz?
- 2.** Yaponiya ta’lim intizomining o‘ziga xosligi nimada?
- 3.** Dzyuku, kokoro tushunchalarini izohlang?
- 4.** Konseptual, estetik va ijtimoiy aqlning bir-biridan farqi haqida nimalar bilasiz?
- 5.** IQ - intellekt koeffitsiyenti tushunchasi nimani anglatadi?
- 6.** Differensiallashgan ta’lim deganda nimani tushunasiz?

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### **1- Amaliy mashg‘ulot. San’atshunoslik yo‘nalishlarining shakllanishi va taraqqiyot yo‘li. (2 soat)**

**Ishdan maqsad:** San’at ta’limida iqtidor tushunchasining mohiyati. Iqtidorni alohida o‘qitishdan maqsad va vazifalar. Integratsion o‘qish tajribalari. Mamlakatimizda san’at sohasining o‘qitilishiga doir umumiy tasavvurlar, fikr-mulohazalar o‘rtaga tashlanadi.

**Masalaning qo‘yilishi:** Tinglovchilar tomonidan kichik guruxlarga bo‘linib, ular har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollardan javob olish jarayonida og‘zaki tahlil orqali sharhlab berishi lozim.

#### **Ishni bajarish uchun namuna**

O‘qituvchi talabalarni 4-guruuhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma’lumot beradi. (darslik, ma’ruza matni, internet materiallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e’lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e’lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek talabalar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e’tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

#### **Guruhda ishslash qoidalari**

Har kim o‘z o‘rtoqlarini tinglashi, xurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa masuliyat bilan qaragan holda ishslashi kerak.

Har kim zarur bo‘lgan holda yordam so‘rashi lozim.

Har kim undan yordam so‘ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirop etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:  
 Boshqalarga o‘rgatib o‘zimiz o‘rganamiz.  
 Kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho‘kamiz.

### **Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.**

1. Individual o‘qish-2 minut.
2. Muhokama qilish –3 minut.
3. Prezentatsiya (takdimot) varag‘ini tayyorlash- 5 minut.
4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.
5. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

**1-ilova**

### **Birinchi guruh uchun vazifa.**

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Akmeologik yondoshuv nima?		
San’at ta’limiga ilg‘or xorijiy tajribalarni olib kirish <b>zaruratini</b> sharhlab bering.		
Kreativ ta’limning yetakchi metodlari nomlarini keltiring.		

### **Ikkinci guruh uchun vazifa.**

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nima?		
San’at ta’limiga ilg‘or xorijiy tajribalarni olib kirish <b>ahamiyatini</b> sharhlab bering.		
Kreativ ta’limda obyekt-subyekt munosabatlarini izohlang.		

**2-ilova**

### **Guruhi baholash jadvali.**

Guruhi lar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruhi a’zosining faolligi	Umumiylar ballar	Baho
1-guruhi					
2-guruhi					

**2- Amaliy mashg‘ulot. San’at ta’limida individual va differensial o‘qitish tajribasining ahamiyati. (2 soat)**

**Ishdan maqsad:** Xorijiy tajriba va respublikamiz ta’lim jarayonlari o‘rtasidagi umumiylig va alohida jihatlar. Ta’lim modernizatsiyasining xususiyatlarini tahliliy o‘rganish faoliyatini tashkillashtirish.

**Maqsadning qo‘yilishi:** Mamlakatimizda san’at ta’limining holati, jarayonlarning o‘ziga xosligini belgilash va sohaning SWOT tahlilini amalga oshirish.

	<b>Manfaatli omillar</b>	<b>Manfaatsiz omillar</b>
Ichki muhit omillari	<b>S – kuchli tomoni.</b>	<b>W – zaif tomonlari</b>
Tashqi muhit omillari	<b>O – imkoniyatlar.</b>	<b>T – xatarlar.</b>

Tinglovchilar guruhlarga bo‘linib, tahlilni amalga oshiradilar. Tahlil yakunlangach, guruh yetakchilari tomonidan prezentatsiya qilinadi. Har to‘rt omillar asoslab, izohlab beriladi. Mashg‘ulot so‘ngida guruhlar o‘zaro bir-birlarini baholaydilar.

### **Mavzu bo‘yicha ikkinchi amaliy mashg‘ulot.**

**Keys-stadi.** Ushbu metodga tayanib, berilgan fikrni muhokama qilish va ilg‘or xorijiy tajribalar misolida mustaqil qarashlarni bayon qilish, asoslash vazifalari qo‘yiladi.

Ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ta’lim tizimida yuz bergan tub o‘zgarishlar barchamizga ma’lum. Ushbu islohotlar samarali natijalar berishi uchun hukumatimiz tomonidan juda ko‘p meyoriy hujjatlar qabul qilindi, ta’lim sohasi xodimlari tomonidan ko‘p say-harakatlar amalga oshirildi. Bugungi kunda erishilgan qator yutuqlar bilan bir qatorda yechimi qiyin ketayotgan muammoli holatlar ham yo‘q emas.

1. Ko‘pchiligidan sobiq ta’lim tizimida o‘qib o‘rganganmiz va bilimlarimiz ancha puxta bo‘lganligini bilamiz. Biroq sobiq ta’lim tizimidan hozirgi ta’lim tizimining afzalligi nimada deb o‘ylaysiz? Kamchilik jihatni ham bormi?

2. Ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchilar munosabatida hamkorlik metodiga asoslanish, ya’ni talabalarni ta’lim obyekti emas, ta’lim subyekti deb hisoblash va

ta’lim subyektlarini faollashtirish, sizningcha, ta’lim samaradorligining qaysi jihatlariga ta’sir qiladi? Aynan shu bugungi kunda nimalarni o‘zgartirdi?

3. Kommunikativ ta’limning an’anaviy ta’limdan, kompetensiyaviy yondashuvning kommunikativ tamoyildan farqli va afzallik jihatlari nimalarda ko‘rinadi? Ushbu yondashuvlarda biridan ikkinchisiga o‘tishda nimalarnidir saqlab qolish kerakmi yoki butunlay voz kechish ma’qulmi?

Berilgan savollarga mustaqil javob berish orqali tinglovchilarning vaziyatni baholash, tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini aniqlash mumkin. Ushbu metodni talabalar guruhlarida qo‘llashda savollarni ularning darajasida tuzish va mustaqil fikrlarini bildirishga imkoniyat yaratib berish muhim bo‘ladi.

### **3-Amaliy mashg‘ulot. Markaziy Osiyo respublikalarida san’at ta’limi tajribalari va o‘zaro aloqadorlik masalalari (2 soat).**

*Ishdan maqsad:* Markaziy Osiyo respublikalarida san’at ta’limi tajribalari va o‘zaro aloqadorlik masalalari. Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga olib kirishdagi o‘ziga xos jihatlar tahlili.

*Maqsadning qo‘yilishi:* Markaziy Osiyo respublikalarida san’at ta’limi tajribalari va o‘zaro aloqadorlik masalalari haqida babs munozara ldib boriladi.

Guruhlар o‘z chiqishlarida jamoa fikrini ifoda etib, qarashlarini himoya qilishi, asoslashi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu munozara talabalarda har qanday masalani o‘rtaga tashlaganda uning ikki tomonini tarozuga solish va shu tariqa asosli xulosaga kelish ko‘nikmasini shakllantiradi.

### **4-Amaliy mashg‘ulot. O‘zbekiston san’atshunoslik fanining o‘ziga xosligi, an’analarning davomiyligi, yangi tendensiyalarning paydo bo‘lishidagi muhit, zaruriyat, istiqbol masalalari. (2 soat)**

*Ishdan maqsad:* O‘zbekiston san’atshunoslik fanining o‘ziga xosligi, an’analarning davomiyligi, yangi tendensiyalarning paydo bo‘lishidagi muhit,

zaruriyat, istiqbol masalalarini jamoaviy tarzda tanqidiy tahlil qilish shart-sharoitini yaratish.

***Maqsadning qo‘yilishi:*** Tinglovchilarning ta’lim va tarbiya uyg‘unligi, Sharqona ta’lim va tarbiyaning xususiyatlari borasidagi qarashlar hamda xorij tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy yondoshuvlar ahamiyatiga doir o‘zaro fikr-mulohaza almashishlari berilgan namuna bo‘yicha FSMU texnologiyasi asosida amalga oshiriladi.

Tinglovchilar guruhlarga bo‘linib, mavzuni tahlil qiladilar. Ishning so‘ngida guruh tomonidan yakuniy xulosalar o‘qib eshittiriladi. Prezentatsiya davomida guruh ishtirokchilarning barchasi faol qatnashishlari talab etiladi.

Ekranda FSMU metodining umumiy tavsifi va u asosda hal qilinadigan mavzu aks etib turadi.

## V. KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI

## V-KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1-ko‘chma mashg‘ulot. O‘zbekiston san’atshunoslik fanining o‘ziga xosligi, an’analarning davomiyligi, yangi tendensiyalarning paydo bo‘lishidagi muhit, zaruriyat, istiqbol masalalari. (4 soat)

**shdan maqsad:** O‘zbekiston san’atshunoslik fanining o‘ziga xosligi, an’analarning davomiyligi, yangi tendensiyalarning paydo bo‘lishidagi muhit, zaruriyat, istiqbol masalalarini jamoaviy tarzda tanqidiy tahlil qilish shart-sharoitini yaratish.

**Maqsadning qo‘yilishi:** Tinglovchilarning ta’lim va tarbiya uyg‘unligi, Sharqona ta’lim va tarbiyaning xususiyatlari borasidagi qarashlar hamda xorij tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy yondoshuvlar ahamiyatiga doir o‘zaro fikr-mulohaza almashishlari berilgan namuna bo‘yicha FSMU texnologiyasi asosida amalga oshiriladi.

Tinglovchilar guruhlarga bo‘linib, mavzuni tahlil qiladilar. Ishning so‘ngida guruh tomonidan yakuniy xulosalar o‘qib eshittiriladi. Prezentatsiya davomida guruh ishtirokchilarning barchasi faol qatnashishlari talab etiladi.

Ekranda FSMU metodining umumiyligi tavsifi va u asosda hal qilinadigan mavzu aks etib turadi.

Bular quyidagi tartibda:

#### **Ko‘chma mashg‘ulot savollari**

1. Amerika ta’lim modelining milliy ta’lim tizimimizga olib kirish mumkin bo‘lgan jihatlari qaysilar?
2. Yaponiya ta’lim modelining ilg‘or tajribalari nimalardan iborat?
3. Jahonning yetakchi ta’lim islohoti tashabbuskorlaridan kimlarni bilasiz?
4. O‘zbek ta’lim modelining yetakchi sifatlari nimalarni o‘z ichiga oladi?
5. Akmeologik ta’limda nimalar nazarda tutiladi?
6. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim deganda nimalarni tushunasiz?
7. Jahonda tan olingan yetakchi ta’lim modellari tushunchasi.
8. Xorijiy tajribalarini OTTga olib kirish maqsad-vazifalari.
9. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning funksiyasi va vazifasi nimada?

## VI. KEYSLAR BANKI

## VI. KEYSALAR BANKI

### Keys №1. “Tunda ochiq”

San’at ommabopligrini yanada oshirish tufayli ushbu sohadagi qo’shimcha qiymatning kapitalga aylanish jarayoni Teyt Modern galereyasi uchun muvaffaqiyatli o’tdi. Mazkur kampaniyani 2002 yil mart va may oylarida Londonning 8ta galereyasidan iborat birlashma o’tkazdi. Galereyalar kampaniyada o‘zlariga xos vazifalarni belgilagan bo‘lsalar ham, lekin barchalari quyidagi maqsadlarga o‘z diqqat e’tiborini qaratdilar:

- tungi soatlarning uzaytirilganligi xaqida ko‘proq tashrif buyuruvchilarni xabardor etish;
- kechki soat 6 dan keyin tashrif buyuruvchilar sonini oshirish; - galereyalar xaqidagi “zerikarli va jonga tekkan joy” degan tassavurni o‘zgartirib, galereyalar - ijtimoiy xayotning bir qismi sifatida kabi konsepsiyanı taklif etish;
- tashrif buyuruvchilar zavq oladigan alohida bir tadbirlar, ma’ruzalar, safar, jonli ijro, restoran, bar va xaridlar kabi faoliyatlar doirasini OAVda yoritib borish.

Ba’zi bir galereyalar, xususan V&A galereyasi tungi soatlargacha ikki yil mobaynida ishlab kelgan va 1500 -2000 ga yaqin tungi tashrif buyuruvchilarni jalb etgan. Boshqalari esa, masalan Milliy Portret Galereyasi xafatasiga ikki tun ochiq bo‘lib, bir yil mobaynida ishlagan edi, unga 300-400ga yaqin odam kechqurun tashrif buyurgan. Dalvik Tasvir Galereyasi o‘z tajribasida tungi tashriflarni hech qachon qo’llamagan va bunday imkoniyatdan foydalanish istagini bildirdi. Kampaniya uchun maqsadli gurux etib 25-34 yoshli san’atdan xabardor yoki mutaxasis, Londonda yashaydigan yoki ishlaydiganlar tanlab olindi. Ushbu segmentni jalb etish uchun “San’atni sevasanmi? ....

Undan zavq ol....Kechroq.” shior ishlab chiqildi.

Ushbu shior reklama brendi sifatida yurakcha shakldagi shirinliklarga biriktirildi.

Har bir galereya xaqida ma’lumot, uning joriy ko‘rgazmalari va kech tungacha ochiqligini yoritgan 190000ta risola nashr etildi. 66000tasi London va Vest Endga distribyuter agentligi tomonidan tarqatildi.

Qatnashuvchi galereyalar har biri 8000tasini tarqatdi, qolgani esa *Time Out* jurnaliga ilova qilindi.

Jurnal o‘quvchilari maqsadli auditoriyaga yoshi, hayot tarzi kabi ko‘rsatkichlari bilan to‘g‘ri keldi. Ushbu xarakatlar orqali 89%ga o‘sish kuzatildi.

Risolada galereyalarda ochilgan tungi barlar xaqida tafsilotlar, xususan Absolut vodka homiyligidagi Love Art arog‘idan kokteyli bepul taklif etilishi berildi. Absolut brendi tanlangan tashrif buyuruvchilar auditoriyasiga to‘liq mos keladi. Bundan tashqari *Time Out* har xafta tungi barlarni reklama qilib, gazetxonlarga maxsus chegirmalarni taklif etib bordi.

Kampaniya xarajatlari qatnashchilar o‘rtasida taqsimlanib, 1400 funt sterlingga teng bo‘ldi. Asosiy xarajatlarni risolalarini chop etish va tarqatish tashkil qildi. *Time Out* gazetasi homiyligida 21000, Absolut brendi tomonidan esa 8000 funt sterlingidagi xarajatlar qoplandi. Keyuard Galereyasida ochilgan birinchi tungi bar birinchi tundayoq o‘rtacha sondan ancha ko‘p bo‘lgan tashrif buyuruvchilar -300tasini jalb etdi. Milliy Portret Galereyasiga esa 800ga yaqin mijoz keldi. Xattoki eng past reytingda bo‘lgan Dalvik Tasvir Galereyasiga 200ta odam keldi. Kampaniya tugaganidan so‘ng natija ko‘plab galereyalarga shunday saqlanib qoldi. Masalan Milliy Portret Galereyasiga tashrif buyuruvchilarning soni o‘sib bordi va xozirda tungi tashrif 1000 dan ortiq bo‘lib turibdi. *Manbaa: Marlow, 2001.*

### Savollar

1. San’at muassasalarining birligidagi xarakatida qanday afzalliliklar va kamchiliklar bo‘lishi mumkin?
2. Galereyalar reklama kampaniyasini o‘tkazishda qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldilar? Ushbu ma’lumotlardan potensial mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni o‘rnatishda qanday foydalanish mumkin?
3. Sizning fikringizcha, ushbu kampaniya tashrif buyuruvchilarni san’atga emas balki bepul ichimlikka jalb etishga aylanib qolish xavfi qay darajada? Ushbu xavfni cheklash uchun nima qilish mumkin?

### Keys №2. “Xall Trak” teatri tomoshibanlari

Tadqiqotlar oxirigi 2 yil mobaynida Xall shahrining teatrga boruvchi aholisidan faqatgina yarmi Xall Trak teatrida bo‘lganligini ko‘rsatdi. Bunga qaraganda 10tadan 9tasi shahar markazida joylashgan dasturi turli tumanligi bilan ajralib turadigan Xall Nyu Teatriga borishi aniqlandi. Yilda teatrga uch va undan ortiq marta borgan tashrif buyuruvchilarning soni chorakdan ko‘prog‘ini tashkil etdi, ularning orasida

hech qaysi Xall Trak teatrida bo‘lmagan. Tomoshabinlarning uchdan bir qismi “yuksak” san’at shakllaridagi zamonaviy dramalarni ko‘rishni xush ko‘rishar ekan va ular orasida Xall Trak teatriga borganlar aniqlanmadи.

Xall Trakning taxlil etilgan joriy tomoshabinlari teatr tashabbuskorlari, doimiy va turli teatrlarga boruvchilar deb topildi. Ular teatrni asosan kechqurun borishga yaxshi joy deb, teatrga borish uydan tashqarida ovqatlanishga borish safari sifatida qabul qilishar ekan. Ularning yoshi 25-44 yoshda.

Bunga qiyosan, yangi potensial tomoshabinlar (tetrga boruvchi lekin Xall Trakka bormaganlar) xaqiqatdan teatrga qiziquvchilar bo‘lmagan. Ular yangilikni izlaydigan va tajriba sifatida qabul qiladigan insonlar toifasidan.

**Tashrif buyurishga ta’sir etish.** Tadqiqot so‘rovnomasи ishtokchilari bo‘yicha Xall Trak teatriga borish uchun qanday omillarga bog‘liqligi aniqlandi. Teatrga boruvchilarning yarmi shahar markazidagi yangi bino o‘ziga jalb etishini ta’kidladilar. Tanaffusda tomoshabinlar dam oladigan xona yoki zal, bar kafelarnig mavjudligi yoshroq tomoshobinlarni jalb etishi mumkin. Jon Godber John Godber badiiy direktorining mahsuloti ko‘pchilikka yoqishi e’tirof etildi. Lekin ko‘rsatuvlarning yangi shakllarini taklif etish tavsiya etildi.

**Marketing natijalari.** Xall Trak teatri marketing kommunikatsiyasidagi kamchilik potensial bozorni chuqurroq o‘rganilmaganligi kuzatildi. Teatr tomoshobinlari teatr dasturlaridan teatr tomonidan yuborilgan xatlar, tez tez tashrif buyuruvchilardan xabardor bo‘lib turishar ekan. Ayrimplari maxalliy gazetalarda berilgan ma’lumotlar bilan qiziqib turar ekanlar. Yoshlar esa asosan internetdan.

### Savollar

1. Xall Trak teatri o‘z missiyasini oshirishda qanday maqsad va vazifalarni belgilashini taklif qila olasiz.
2. Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda qanday strategiyalarni ishlab chiqasiz. Ushbu strategiyalarni tadbiq etish uchun marketing taktikasini ishlab chiqing.
3. Ushbu rejalarini ishlab chiqishda ma’lumotlar ro‘yxatini tuzing. Agarda Siz Teatr marketing menejeri bo‘lsangiz ushbu ma’lumotlar yetarlicha bo‘larmidi?

### Keys №3. Opera hamkorligi

Sidney Opera Xaus butun dunyoda mashxur bo‘lgan zamonaviy arxitektura dizaynidagi binolardan birida joylashgan. Opera Xaus tashkiliy rivojlanish innovatori sifatida uning ijrochi direktori Maykl Link to‘rt yillik boshqaruvi ostida shakllandi.

Link Avstraliya Kengashidagi teatr menejmentida milliy san’atni qo‘llab quvvatlovchi innovatsion shaxs sifatida e’tirof etilib 1998 yilda Avstraliya tasviriy institutini boshqaruvini oldi. Uning boshqaruv faoliyati Opera Xaus uchun ikki muhim tarixiy voqealar – Yangi yil va 2000 yil Sidney Olimpiadasiga to‘g‘ri keldi. Bunday hodisalar tashkilot uchun ish jarayonining yangi yondashuvlarini talab etardi va Link Operani “o‘rganuvchi tashkilot” ga aylantirishga axd qildi. Ushbu atama amerikalik menejment namoyandasi Piter Senj (Peter Senge) tomonidan 1990 yilda “Beshinch Fan” kitobida yoritilgan bo‘lib, unga binoan tashkilot insonlar kabi tizimli ravishda rivojlanishi va tajriba almashishlari lozim. Albatta uning afzalligi bir butunligida, o‘rganib borish esa tashkilot muhim faoliyatlaridan biri sifatida tashkiliy quvvatni oshirishda katta kuchdir. Boshqacha qilib ta’kidlanganda esa, “uning a’zolari jamoaviy xabardorlik va unumdonorlikni kuchaytirish va qo‘llab quvvatlashga doimiy diqqat e’tiborini qaratib turadilar” (Senge *et al.*, 1994).

Opera Xausda muvaffaqiyatga erishish yo‘li barcha xodimlarni ushbu yo‘nalishgaqo‘yish deb belgilandi.

Link buni quyidagicha izohladi: “Opera Xausda ishlar qanday bajarilishiga butun shtatni jalb etish yondashuvini biz qabul qildik. Natija –bu ish joyi bo‘lib, bu yerda tashkilot rivoji uchun har bir xodim o‘z xissasini qo‘sish uchun vakolat olgan. Bu shaxsning o‘sishi uchun ko‘maklovchi ish joyi bo‘lib, bunda innovatsiyalar, mahoratni ko‘rsatish, “buni qila olaman” degan xatti xarakat tan olinadi va rag‘batlantiriladi”. Ushbu jarayoning bosh g‘oyasi turli sohalarni qamrab oluvchi loyiha guruxining tashkil topishi bo‘lib, unga tajribasi va funksional asosi har xil bo‘lgan xamkasabalar kiritildi.

Ularning vazifasi muassasaning 2000 yilga tayyor bo‘lishi, ya’ni kompyuterga muvofiqlik va tovar va xizmatlarga yangi soliqlar bilan tanishish. Shu bilan birga madaniy o‘zgarishlarga bo‘lgan zarurat masalasi muassasaning turli bo‘limlari va pog‘onalari tomonidan o‘rtaga qo‘yildi. Konsepsiya Komandasasi deb nom olgan ushbu ishchi gurux e’tiborini muassasaning o‘zini hamda bu yerdagi har bir shaxsni takomillashtirishga qaratdi.

## VI. GLOSSARY

## VI. GLOSSARIY

Ingliz tilidagi	Termin	O‘zbek tilidagi
Theatre	<b>Teatr</b>	<b>Teatr</b> – (yun. so‘z bo‘lib, tomoshagoh degan ma’noni anglatadi). San’at turi; uning o‘ziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o‘yinijarayonida yuzaga keladigan sahnnaviy voqeadir. Teatr san’atida ham boshqa san’atlarda bo‘lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma’naviyati, madaniyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og‘zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi. Teatr sintetik san’at bo‘lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma’naviy-estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san’at, raqs, memorlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatr – san’atning muhim bir xili bo‘lib, u qadimgi Gretsiyada tug‘ildi.
Decoration	<b>Teatr dekoratsiyasi san’ati</b>	ssenografiya– tasviriy san’atning teatr san’ati bilan bog‘liq sohasi; dekoratsiya, liboslar yorug‘lik, sahna texnikasi vositasida spektaklning tomosha obrazi (ko‘rinishi)ni yaratish san’ati.
Music	<b>Teatr musiqasi</b>	1. keng ma’noda - barcha musiqlari (opera, balet, operetta, musiqli drama, musiqli komediya, vodevil, myuzikl va b.) hamda dramatik spektakllar uchun yozilgan musiqa. 2. tor ma’noda – dramatik teatr spektakl (drama, komediya, tragediya)lari musiqasi
Theatre Science	<b>Teatrshunoslik</b>	teatr tarixi va nazariyasini o‘rganuvchi fan. Mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida teatr san’atining umumiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda XX asrda shakllangan. Teatrshunoslik dastlab, asosan drama teatrлари faoliyati bilan bog‘langan bo‘lsa, keyinchalik opera va balet, operetta, musiqli drama, bolalar teatri, qo‘g‘irchoq teatri, teatr ta’limi, sahna nutqi, dekoratsiya san’ati, teatr libosi va pardozi, sahna harakati, havaskorlik teatri sohalari va yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi.
Subject	<b>Syujet</b>	– (fr. va lot. so‘z bo‘lib, predmet, mazmun, mohiyat, narsa degan ma’nolarni anglatadi). 1. Badiiy asarda, filmda voqeа-hodisalar tasviri, bayonidagi izchillik va o‘zaro aloqa; badiiy asar mazmuni. 2. Tasviriy san’atda: tasvir obyekti, predmeti.

		Syujet –badiiy asar mazmunini tashkil etadigan, bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda kechadigan, qahramonlar o‘rtasidagi aloqalardan tarkib topgan voqealar tizimi.
<b>Acting technique</b>	<b>Aktyorlik san’at</b>	san’at yaratish sasna qiyofalarni (rollarni) teatrda tomoshalarning taqdimotchilari
<b>Atmosphere</b>	<b>Atmosfera</b>	hayajonli bo;yash har kimning harakatlari, sahnaning, epizoda, bog‘liq bo‘lgan tavsiya etilayotgan holatlar, voqealardangi tugun, nizoni, tempo-ritma, "donlar", bog‘liqligi harakati va faoliyat yurituvchi shaxslarda uni fe'l-atvorini, yordam beradi.
<b>Proscenium</b>	<b>Avanssena— sahna</b>	dahliz bir bo‘lak sahnaning, bir qancha namoyish etilgan tomosha zali. (Rampa). sifatida o;yin uchun belgilangan maydoncha sahna oldi keng foydalanildi oper va balet spektakl dramatik teatrlarda sahna oldi xizmat qiladi. Asosan joy harakatlari uchun katta bo‘lmagan sahnalar oldidagi yopiq parda.
<b>Type, theatrical character</b>	<b>Amplua— o‘xshash</b>	fe’liga ko‘ra rolini, tegishli ma’lum aktyora (aktrisalar) tomonidan bajariladigan rollarning tipi.
<b>Atellana</b>	<b>Atellana-atellana</b>	(qadimgi rim xalq tomoshasi;odiiy xalq hayotini tasvirlovchi qisqa sahna asari)
<b>Annotation</b>	<b>Annotatsiya- annotatsiya</b>	(qisqa qaydlar, kitobning qisqacha mazmuni)
<b>Ballad</b>	<b>Ballada-</b>	(lirik-epik poeziyaning bir turi)
<b>Ballet</b>	<b>Balet-balet</b>	(teatr san’ati turlaridan biri); raqsga asoslangan muzikali-dramatik sahna asari)
<b>Properties</b>	<b>Butaforiya— sahnadagi</b>	yasama jihozlar qalbaki fanlar ( haykaltaroshlik, mebel, idish, bezaklar va boshqalar. Asar voqealarini ochishga yordam beruvchi narsalarni.
<b>Buffoon</b>	<b>Buffonada</b>	kulgili teatr tomoshasi qabul qilish, foydalanilayotgan teatrda; asosan tashqaridan qaraganda komik bo‘rttirib yuborish, ba’zida tartibli harakatlarni, ko‘rinishlari

## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

## VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

### II. Normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.

6. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagи “O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3920-son Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrdagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi PQ-4068-son Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagи “Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4584-son Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli [Farmoni](#).

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

## SH. Maxsus adabiyotlar

20. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiY. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s.

<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

21. Avdeyva L. O‘zbek milliy raqsi tarhidan. - T.: Mukarrama Turgunboeva nomidagi “O‘zbek raqs”milliy raqs birlashmasi, 2001.- 204b.

22. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: MonografiY. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

23. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

24. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 b.

25. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

26. Qodirov M. Tomosha san’ati o‘tmishidan lavhalar. – T: Fan, 1993. – 205-b.

27. Qodirov M. Temur va temuriylar davrida tomosha san’atlari. – T: G‘.G‘ulom nom. nashriyot, 1996. – 64-b.

28. Qodirov M. “Tomosha san’atlari o‘tmishda va bugun” - T: “Mumtoz so‘z”, 2011. - 528 b.

29. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

30. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. Y. Ignatova ; M-vo obrazovaniya i nauki RF ; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. [http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0\\_2017.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf).

31. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. <https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3. UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf>.

32. Sayfullayev B. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi. – T: «Fan va texnologiya», 2014. - 152 b.
33. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
34. Chaplin Charlz Spenser. O sebe i svoyem tvorchestve. M.: Iskusstvo. T. 1 - 1990.350 s.
35. Fayziyev X. Ovozsiz kinematografdagi operatorlik san'ati tarixidan. T., 2008. – 180 b.
36. Freylix Teoriya kino: ot Eyzenshteyna do Tarkovskogo. M.: Iskusstvo, TPO-1992, “Istoki”, -351 s.
37. O‘zbekiston tarixi va madaniyati. SH.Karimov va boshq. Toshkent: 1992,O‘qituvchi, - 294 b.
38. O‘ngboyeva B.O‘. O‘zbekistonda 1920-1956 yillarda kino va teatr san'ati tarixi. Diss avtoreferati. –T., 2018. –55 b.
39. Yurenev R. Kratkaya istoriya kinoiskusstva. - M.:Akademiya, 2000.- 288
40. Andrew Paquette. An Introduction to Computer Graphics for Artists.- Springer Publishing Company, Incorporated, USA 2013.
41. Agel H. L'espace cinématographique. Paris, ed. J.-P.Delarge-ed. Universitaires, 1978,219 p.
42. Basic Text of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage, UNESCO, Paris, 2014 y.
43. Benjamin Grosbayne. “Techniques of modern Orchestral Conducting”. Harvard University Press. USA, 2011 y.
44. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
45. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
46. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. 175.
47. Mitchell. H.Q. , Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
48. Mitchell. H.Q. “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
49. Raymond Bisdorff, LuisC. Dias, Patrick Meyer, Vincent Mousseau, Marc, Pirlot. Evaluation and Decision Models with Multiple Criteria.- Springer-Verlag Berlin Heidelberg. - Germany, 2015 y.
50. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
51. Sibsan. “The modern conductor”. Pearson Prentice Hall. Angliya, 2004.

#### **IV. Internet saytlar**

52. <http://edu.uz>
53. <http://lex.uz>
54. <http://bimm.uz>
55. <http://ziyonet.uz> –

56. http:www.dsni.uz.
57. http:www.kino-teatr.ru
58. http://www.artsait.ru
59. http://belcanto.ru/
60. http://music.edu.ru/catalog
61. http://artyx.ru/